

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TABIIY FANLAR va GEOGRAFIYA FAKUL'TETI

GEOGRAFIYA VA EKOLOGIYA ASOSLARI KAFEDRASI

**“DAK ga tavsiya etaman”
Tabiiy fanlar va geografiya fakulteti dekani
_____ dots.A.Nazarov
“ ___ ” _____ 2014 yil**

**« O'zbekiston aholi zich mintaqalarida aholi punktlarining ijtimoiy
iqtisodiy rivojlanishi »(Uychi tumani misolida) mavzuidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajardi: «Geografiya» ta'lim yo'nalishi
bitiruvchi 4-kurs talabasi Salamova M

Rahbar: g/f/n., dotsent Mallaboyev

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi. Kafedraning 9- sonli bayonnomasi. «21» aprel 2014 yil.

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I-BOB. AHOLI PUNKTLARINI O'RGANISHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI.....	9
11.1 Aholi punktlarini o'rganishning nazariy-uslubiy masalalari.....	9
1.2 Aholi punktlarini shakllanishi va rivojlanishi.....	14
II-BOB. UYCHI TUMANI AHOLI PUNKTLARINING IQTISODIY VA IJTIMOY RIVOJLANISHI.....	20
2.1 Aholisi va mehnat resurslari.....	20
2.2 Tuman aholi punktlarining iqtisodiyoti.....	29
2.3 Tuman aholi punktlari iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi hamda ularni “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturi asosida takomillashtirish.....	39
XULOSA	51
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	54

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Jamiyat va tabiat o'zaro uzviy aloqada rivojlanadi. Inson tabiatning ongli ko'rinishi bo'lib, u tabiatga ta'sir ko'rsatadi. Uning barcha boyluklaridan foydalanadi. Odamzod tabiatning inson yashashi va ho'jalik yuritish mumkin bo'lgan yerlarini o'zlashtirib, o'rnashadi va aholi punktlarini hosil qiladi. Pirovardida esa tabiatning ho'jalik "qobig'ini" tashkil etadi. Darhaqiqat, aholi punktlari kishilarning doimiy yashaydigan, moddiy va ma'naviy boyluklar yaratadigan hamda ularni iste'mol qiladigan joydir.

Aholi punktlari iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot markazi bo'lishi bilan birga, ular hududning ushlab turuvchi karkas (sinch-mashxur rus iqtisodchi-geograf olim N.Baranskiy)dir. Shuning uchun ham azaldan aholi punktlari ko'pgina fanlarning, shu jumladan iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning o'rganish ob'yekti va predmeti bo'lib kelgan.

Ma'lumki, XX asrning oxirgi o'n yilida jahon ijtimoiy-siyosiy xayotida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Qariyb 70 yildan ortiq hukm surib kelgan sho'rolar hukumati parchalanib, qator milliy respublikalar mustaqil davlat sifatida dunyo xaritasidan joy oldilar.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy voqea bo'ldi. Hozir O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini jahonning 185 dan ortiq mamlakatlari tan oldi. Respublikamiz dunyoning 160 dan ortiq mamlakatlari bilan o'zaro aloqa o'rnatdi. 60 ga yaqin mamlakatlar bilan elchixonalar darajasida aloqa olib borilmoqda. Mustaqil O'zbekiston jahonning 40 ga yaqin nufuzli tashkilotlari hamda BMT ning teng huquqli a'zosidir.

O'zbekiston Respublikasi o'z istiqlolining 23 yilligini tantanali nishonlash arafasida turibdi. Bu qisqa davr ichida o'zbek halqi mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan "O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqlolining asosiy tamoyillari"ni xayotga tadbiiq eta borib, hamma viloyat, tuman va qishloqlarda mustaqil taraqqiyotning katta imkoniyatlarini ishga solinib, tub ijobiy o'zgarishlar amalga oshirmoqdalar. Eng

muhimi, halqimiz o'z zamini, uning barcha boyliklari va ishlab chiqarishiga to'liq ega bo'lib, ularni O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti poydevorini barpo etishga xizmat qildirmoqda. Ayniqsa mahalliy va chet el sarmoyalarini jalb qilishga katta e'tibor berilmoqda. Hozir dunyodagi 80 dan ortiq kompaniyalarning 4800 ga yaqin qo'shma korxonalarini tashkil qilish avj oldirilgan. Shulardan qariyb 2800 tasi faoliyat ko'rsatib, jahon andozalariga mos bozorgir mahsulotlar ishlab chiqarmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin ijtimoiy hayotning barcha sohalarida chuqur islohotlarni amalga oshirilmoqda. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizning 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining yig'ilishidagi ma'ruzasida "Mamlakatimizda ijtimoiy sohani isloh etish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tizimida aholi punktlarining qiyofasini tubdan o'zgartirish, na'munaviy loyhalar asosida yangi uy-joylar qurish, qishloqda mohiyat e'tibori bilan yangi infratuzilmani shakllantirish hisobidan qishloq aholisining hayotini yanada yaxshilashga alohida e'tibor qaratmoqdamiz", deb ta'kidlaydi¹. Ayniqsa, hayot tarzimizning moddiy asosi bo'lgan iqtisodiyotning sanoat va qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishlarda bozor munosabatlari avj oldirilmoqda. Islohotlarning samarali yakuni ko'p jihatidan respublika mintaqalari, shu jumladan tuman, shahar va qishloq joylarining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini o'rganilishiga bog'liq. Shu jihatidan, 2009 yilni "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili", - deb e'lon qilinishi va uning Davlat dasturida belgilangan tadbirlarni birin-ketin bajarilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov "Qishloqlarimiz qiyofasini, qishloqda hayot sifatini, ishlab chiqarish munosabatlarining mazmun-mohiyatini o'zgartirishga, agrosanoat majmuida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirishga, oxir oqibatda qishloq aholisining ijtimoiy-siyosiy va madaniy saviyasini, uning ongi va fuqarolik mas'uliyatini oshirishga qaratilgan, biz uchun

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizning 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining yig'ilishidagi ma'ruzasi. "Halq so'zi" gazetasi 2014 yil 18 yanvar.

o'ta dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan ushbu Davlat dasturini bajarishga kirishar ekamiz, 2009 yildagi bosh vazifamiz uni amalga oshirish bo'yicha istiqboldagi barcha ishlarni mustahkam tashkiliy asosga qo'yishdan iboratdir", - deb ta'kidlagan edi².

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy mustaqilligini mustahkamlashda uning barcha ma'muriy-hududiy birliklari, shu jumladan Uychi tumani ham faol qatnashmoqda. Uychiliklar respublika mustaqilligining 23 yili mobaynida katta iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar yasadilar. Tuman bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarini amalga oshira borib mavjud 14 ta fermer ho'jaliklari, 250 ta korxonalar, muassasa va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari xususiylashtirildi. Hozirgi kunda tumanda 30 dan ortiq fermer ho'jaliklari, 856 ta dehqon-fermer ho'jaliklari, shuningdek, 564 kichik va o'rta biznes sub'yektlari hamda 4 ta qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Qishloq ho'jaligida tub islohotlar o'tkazilib, tarmoq va hududiy rivojlanish bo'yicha katta o'zgarishlar qilindi. Paxtachilik bilan birga bog'dorchilik, sabzavot, polizchilik va ayniqsa, g'allachilik maydonlari kengaytirildi.

Hozir Uychi tumani Namangan viloyati iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatida salmoqli nufuzga ega. Viloyat maydonining atigi 3,9 foizini egalagani holda tumanda uning 9 foizdan ortiq aholisi yashaydi. Tumanda viloyatning 7,8 foiz qishloq ho'jaligi yalpi mahsuloti va 5,0 foiz sanoat yalpi mahsuloti ishlab chiqariladi.

Shuni ta'kidlash joizki, respublika ho'jalik majmuini barqaror va jadal rivojlantirish, uning salohiyatini yanada yuksalrtirish, shuningdek, kishilarda vatanni sevish va mavjud boyliklarini ardoqlash, tuyg'ularini shakllantirish uchun uning barcha tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini chuqur o'rganishni taqazo etadi. Ayniqsa, respublika va uning viloyati iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini bosh markazlari bo'lgan aholi punktlarini o'rganish dolzarb masaladir. Chunki, aholi punktlari aholi va ishlab chiqarish joylashuvining asosiy shakllari

² Karimov I.A. Mamlakatimizda modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident I.Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. "Halq so'zi", 2009 yil 14 fevral.

bo'lib, ular ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot markazlari sifatida atrof hududni boshqarib turuvchi aholi to'plangan hududdir. Boz ustiga, o'rganilayotgan aholi punktlar O'zbekistonning aholi eng zich, (O'zbekiston – 69 kishi) sug'orma dehqonchilikning har bir qarich yeri ijtimoiy taraqqiyotning moddiy asosi bo'lgan Farg'ona mintaqasida (har bir km kv ga 462 kishi) rivojlanayotgani mavzuning o'ta dolzarbligidan dalolat beradi.

Tadqiqot ob'yekti va predmeti. Yuqoridan kelib chiqqan holda mazkur bitiruv malakaviy ishining tadqiqot ob'yekti qilib, aholi zich mintaqada rivojlanayotgan Uychi tumani aholi punktlari etib belgilandi. Uychi tumani aholi punktlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari qilib belgilandi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari:

- Tuman aholi punktlarini o'rganishning nazariy-uslubiy masalalarini yoritish;
- tuman aholi punktlarining shakllanish va rivojlanish bosqichlari;
- Aholi punktlarini tiplarga ajratish va tasniflash;
- Aholi punktlarining aholisi va mehnat resurslari, ulardan foydalanish holatini tahlili;
- Aholi punktlarining iqtisodiyoti va ularning funktsional topologiyasi;
- Aholi punktlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi hamda “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturi asosida takomillashtirish;

Ishning nazariy-metodologik asosini O'zbekistonning bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanishini belgilovchi respublika Prezidenti I.A.Karimov tomonidan belgilangan asosiy tamoyillar, uning asarlari, Vazirlar Mahkamasining aholi punktlarining rivojlanishi va ularni takomillashtirish bo'yicha qarorlari tashkil etadi. Shuningdek, muallif ishni yozishda respublikadagi yetuk iqtisodchi-geograf olimlar, xususan professor Z.M.Akramov, A.Soliyev, A.Qayumov, demograf olimlar G.A.Asanov, Ata-Mirzayev, X.Salimov, E.Ahmedov, R.Ubaydullayeva va boshqalarning ilmiy ishlaridan keng foydalanib statistik, matematik, kartografik, grafik, taqqoslash, komplekslilik tizim va kuzatish kabi qator tadqiqot usullari bilan yoritishga harakat qilindi.

Tadqiqot ilmiy yangiligi. Aholi zich va sug'orma dehqonchilik sharoitida Uychi tumani aholi punktlarining ilk bor iqtisodiy va ijtimoiy geografik jihatdan o'rganish.

Tadqiqotning ilmiy hamda amaliy ahamiyati. Ularning hozirgi va kelajakdagi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini tahlili esa bitiruv malakaviy ishining tadqiqot ilmiy yangiligi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi va hajmi. Ish kirish, 2 ta bob, 5 ta bo'lim, 9 ta jadval, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va manbalardan iborat.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifasi, o'rganilganlik darajasi, nazariy-metodologik asosi hamda tadqiqot usullari yoritilgan.

Birinchi bobda - aholi punktlarini o'rganishning nazariy-uslubiy masalalari ularning aholi zich mintaqada shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari, ikkinchi bobda – tuman aholi punktlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi, aholisi va mehnat resurslari, ho'jaligi hamda aholi punktlarining iqtisodiy-ijtimoiy va “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturi asosida rivojlanishini takomillashtirish yoritilgan. Xulosa qismida aholi punktlarining rivojlanishini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Ikkinchi bob esa Uychi tumani aholi punktlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi hamda tuman aholisi va mehnat resurslari haqida ma'lumot o'rganildi.

Bitiruv malakaviya ishda 9 ta jadval, 2 ta karta sxema berilgan. Ishning asosiy mazmuni Namangan Davlat universiteti professor-o'qituvchilari va talabalarining 2012-2013 hamda 2013-2014 o'quv yillaridagi ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan.

Ishning kirish qismi yakunida shuni mamnuniyat bilan ta'kidlash lozimki, meni malakali geografiya o'qituvchisi bo'lib shakllanishimda hamda ushbu malakaviy bitiruv ishini yozishimda ilmiy uslubiy yordamlarni ko'rsatgan Namangan Davlat universiteti “Geografiya va ekologiya asoslari” kafedrasining professor-o'qituvchilari hamda hodimlariga o'zimning samimiy minnatdor-chiligimni bildiraman.

I-BOB. AHOLI PUNKTLARINI O'RGANISHNING NAZARIY- USLUBIY MASALALARI

1.1 Aholi punktlarini o'rganishning nazariy-uslubiy masalalari

Ma'lum bir shaklga ega bo'lgan aholining hududiy joylanishi *aholi punktlari* deyiladi. Aholi punktlarining qiyofasi va moddiy shakllaridagi bir-biridan farqi asosan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari hamda ishlab chiqaruvchi kuchlarni taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Aholi punktlari qiyofasiga, shuningdek moddiy madaniyatni milliy belgilari, halq an'analari va geografik muhitning xususiyatlari ham ta'sir ko'rsatadi.

Aholi punktlarini geografik jihatdan o'rganishda va tavsiflashda har bir aholi punktida yashaydigan aholining sonini bilish muhim ahamiyatga ega. Chunki, aholi punktlari, birinchi navbatda, aholining soniga qarab (bir necha kishi yashaydigan mayday qishloqlardan tortib, to bir necha million kishilik aholisi bo'lgan eng yirik shaharlargacha) tavsiflanadi. Aholi punktlarini geografik jihatdan o'rganishda unda yashaydigan aholining umumiy soni bilan emas, balki uning tarkibi va halq ho'jaligi tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi, shuningdek har bir aholi punktining bajaradigan vazifasi, mamlakat iqtisodiy va madaniy hayotida tutgan o'rnini hamda ahamiyati, uning boshqa aholi punktlari bilan aloqasi, tabiiy geografik va ayniqsa, iqtisodiy-geografik o'rnini tahlil qilish muhimdir.

Shunday qilib, aholi punktlari bizni aholi yashaydigan joy sifatidagina qiziqitmasdan, balki ishlab chiqarish va madaniy-siyosiy markazlari, iqtisodiy aloqalarning asosiy tugunlari sifatida ham qiziqtiradi.

Aholi punktlari birinchi navbatda 2 ta katta tipga ajratiladi: - shahar va qishloqlar.

Shahar va qishloq tushunchalarining vujudga kelishi, shaharlarning qishloqlardan ajralib chiqishi jamiyat tarixida ijtimoiy mehnat taqsimotining paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Ijtimoiy mehnat taqsimoti jarayonda hunarmandchilik va savdoning qishloq ho'jaligidan ajralib chiqishi munosabati bilan shahar va qishloq tushunchalari vujudga kelgan. Hunarmandlar va savdo

bilan shug'ullanuvchilar yashaydigan aholi punktlari shaharlar deb, qishloq ho'jalik mehnati bilan shug'ullanuvchilar yashaydigan joylar esa qishloqlar deb atala boshlagan. Shahar va qishloq tushunchalarining vujudga kelishi dunyoning turli qismlarida bir vaqtda bo'lgan emas, albatta. Ko'pchilik hollarda shaharlar, asosan, ibtidoiy fermer tuzumidan quldorlik tuzumiga o'tish davrida ayrim halqlarda esa, feodalizmga vujudga kela boshlagan.

SHuni e'tirof etish kerakki, qishloq joylari shaharlarga nisbatan juda kam o'rganilgan. MDH mamlakatlari orasida qishloqlarni ilk bor rus iqtisodchi geograf olimi S.A.Kovalev (Selskoye rasseleniye (Geograficheskoye issledovaniye). –M.: MGU, 1963.) o'rgangan. O'zbekistonda esa, Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy universitet iqtisodchi-geograf olimlari A.S.Soliev va M.Nazarovlar o'rganishgan. Ularning “O'zbekiston qishloqlari” (Qishloq joylari geografiyasi, Toshkent, 2009) nomli monografiyasi qishloqlarni o'rganishga bag'ishlangan dastlabki asar hisoblanadi. Mazkur bo'limni yoritishda ushbu asardan foydalanildi.

Qishloq joylar shahar va shaharchalardan tashqaridagi hududlar bo'lib, ularda qishloq ho'jaligida muntazam foydalanadigan yerlar hamda doimiy aholi manzilgohlari (punktlari) mavjud bo'lishi kerak. Demak, qishloq joylar geografik kartada areal, maydon ko'rinishida, qishloq aholi punktlari esa ular ichidagi nuqtasimon shakldagi jamiyatning ijtimoiy hududiy tashkil etish birligi hisoblanadi.

Aholi punktlarining shakllanishi va rivojlanishi turli mamlakatlar hamda ularning ayrim mintaqalar bo'yicha taqsimlanishi va to'planishi asosan o'sha mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Ho'jalikning hududiy joylashuvi, uning o'ziga xos xususiyatlari har bir mintaqaga uchun aholi punktlarining muayyan shakllarini vujudga keltiradi. Professor V.V.Pokshishevskiy aholi punktlarining quyidagi 6 ta shaklini dunyo bo'yicha keng tarqalgan shakllar deb hisoblaydi:

1. Qishloq aholi punktlarining yoyilgan (tarqoq) shakli. Bunda odatda qishloq ho'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholi o'z hovlisi (qo'rg'onida) mehnat qilib

yashaydi. Qishloq aholisining tarqoq shakliga odatda bir yoki bir necha oiladan iborat xonadonlari bo'lgan aholi punktlari kiradi.

2. Tarqoq (yoyilma) aholi punktlari viloyatning Mingbuloq, Pop, Chortoq, Yangiqo'rg'on, Kosonsoy tumanlarida ko'proq rivojlangan. Uychi tumani hududida esa Jiydakapa, Qizilrovot, Birlashgan qishloq fuqarolar yig'inlarida keng tarqalgan. Qishloqlar bu shaklida qishloq aholisi guruh-guruh bo'lib yashaydi va Yer shari aholi punktlarining asosini tashkil qiladi. Ammo, bu shaklda ham aholi qishloq ho'jaligida foydalanadigan yerlar bo'ylab tarqoq joylashgan bo'ladi. Bu shakldagi aholi punktlari respublikaning sug'orma dehqonchilik rayonlarida asosan shu shakldagi aholi punktlari rivojlangan.

Qishloqlarning katta-kichikligi taraqqiy etgan qishloq ho'jalik tarmog'ining ko'p yoki kam mehnat talab qilishiga va boshqa omillariga bog'liq bo'ladi.

Respublikadagidek Uychi tumanida ham aholi punktlarining qishloq tipi asosiy o'rinni egalaydi. Deyarli barcha aholi punktlarining markazi (yadrosi) qishloq tipidagi aholi punktlaridan iborat. Bularning orasida qadimiy markazga ega bo'lgan tiplari mavjud. Ular orasida Mashad, O'nhayat, Fayzobod, Mirzaravot, Yorqo'rg'on, Uychi, Axxi va Xizirobod kabilar qadimiyliги bilan ajralib turadi. Bu katta qishloqlar atrofida tarqoq (yoyilma) tipidagi aholi punktlari rivojlangan.

Shaharlar – aholi punktlarining ijtimoiy mehnat taqsimotining maxsuli sifatida vujudga kelgan asosiy tipi. Hozirgi paytda shahar aholi punktlarini eng keng tarqalgan yashash shaklidir. Shahar – ijtimoiy mehnat taqsimotining birinchi va eng yirik samarasi hisoblanadi. Shahar bilan qishloqni bir-biridan ajratib turadigan asosiy belgi – ularning halq ho'jaligida bajaradigan funksiyasidir (vazifasi). Qishloq doimo qishloq ho'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholi yashaydigan punktdir. Shahar esa, mehnat faoliyatining qishloq ho'jaligidan boshqa tarmoqlari bilan shug'ullanuvchi aholi yashaydigan, odatda qishloqlarga nisbatan katta bo'lgan aholi punktidir.

Davr o'tishi bilan shaharlarning asosiy funksiyalarida (vazifasi) o'zgarishlar bo'lib turgan (dastlab hunarmandchilik, so'ngra nmanufaktura, nihoyat yirik industriya va hokazo). Shuningdek, ayrim shaharlar (ayniqsa, feodalizm davrida)

ma'lum hudud ustidan hukmronlik (boshqaruv) qilib turadigan xarbiy va ma'muriy markazlar sifatida ham vujudga kelgan. Ba'zan shaharlar din markazi, shuningdek kurort sifatida ham paydo bo'ladi. Ammo shaharlarning vujudga kelishidagi asosiy omil ularning ijtimoiy ishlab chiqarishning (birinchi navbatda, sanoatning) markazlari ekanligidir. Xulas, butun ijtimoiy taraqqiyot tarixida shahar iqtisodiy, siyosiy va madaniy markazlar sifatida qishloqlarga nisbatan yetakchi rol o'ynab kelgan.

O'zbekistonda aholi punktlarining shaharlarga aylantirish yoki qishloq holida saqlab qolishning qonun-qoidalari bor. Jumladan, Respublika Vazirlar Mahkamasining 1972 yildagi qaroriga binoan aholi punktini shaharga aylantirish uchun undagi aholining soni 7 mingdan kam bo'lmasligi, aholining 2/3 qismi ishchi, xizmatchi va ularning oila a'zolaridan iborat bo'lishi e'tiborga olindi. Rossiyada esa 1957 yilgacha aholisining soni 10 ming kishidan kam bo'lmagan, qishloq ho'jaligida ishlovchilarning salmog'i 25 foizdan ortiq bo'lmagan aholi punktlari shaharga aylantirilishi mumkin edi. Shuningdek, aholi punktining iqtisodiy va mehnat ahamiyati ham e'tiborga olingan. Keyinchalik esa, bu shartlar o'zgardi. Hozir aholi punktini shaharga aylantirish uchun undagi aholi soni 12 ming kishidan kam bo'lmasligi, barcha aholining 85 foizi ishchi, xizmatchi va ularning oila a'zolaridan iborat bo'lishi kerak.

Umuman, dunyoning turli mamlakatlarida aholi punktlarini shahar deb atash va shaharga aylantirish shartlari turlicha. Chunonchi, AQSH aholisining soni 2500 kishidan ortiq barcha aholi punktlari shaharlar qatoriga kiritiladi, Fransiyada aholi soni 2ming kishi, Ispaniyada atigi 200 kishi bo'lsa kifoya, shaharga aylantiriladi. Gollandiyada esa aksincha, aholi punktining shaharga aylantirish uchun u yerda 20 ming kishidan ortiq aholi yashashi kerak va h.k.

Uychi tumanida hozircha yuqorida talablarga to'g'ri keladigan aholi punktlari rivojlanmagan. Shahar darajasiga yetmagan punktlar – shaharchalar. Bunday aholi punktlari ko'proq tog'-kon va qishloq ho'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat bilan bog'liq holda vujudga keladi ("shahtyor" konchilar, neftchilar, tikuvchilar, gidrotexniklar yashaydigan shaharchalar).

Keyingi yillarda respublikada ayrim qishloq aholi punktlarida ishlab chiqaruvchi kuchlarni jadal rivojlanishi, ayniqsa qishloq joylariga sanoatni kirib borishi va qishloq ho'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan kichik korxonalarni tashkil etilish, shuningdek, qishloq joylarida aholiga xizmat ko'rsatuvchi madaniy-maishiy tarmoqlarini (servis xizmati) rivojlanishi, ularni shaharchalarga aylantirish uchun zamin yaratdi. Natijada, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 13 martdagi 68-sonli qaroriga asosan respublikada 965 ta qishloqlar, Namangan viloyatida esa 128 ta qishloqlar shaharchaga aylantirildi. Shu yo'l bilan Uychi tumanidagi mavjud Uychi va O'nhayat shaharchalari bilan birga 13 ta qishloqlar shaharchalarga aylantirildi. Ular G'ayrat, Bo'yg'on, Birlashgan, Jiydakapa, Kichik qishloq, Ziyokor, Soku, Mashad, Fayzobod va Churtuk. Bu shaharchalarda tumandagi birmuncha yirik sanoat korxonalari va boshqa nomoddiy ishlab chiqarish sohaning ko'pgina korxonalar va muassasalari rivojlangan.

Ko'makchi aholi punktlari. Bunday aholi punktlari aholisining soni kam bo'lib, shaharga ham, qishloqlarga ham kiritilmaydi. Vaqt o'tishi bilan bunday aholi punktlari ijtimoiy va hududiy mehnat taqsimoti kuchli taraqqiy etgan keyingi davrlarda vujudga kela boshlagan. Masalan, sanatoriy, kasalxona, turizm rivojlangan, ilmiy muassasalar joylashgan va shahar hamda qishloqlardan tashqarida bo'lgan alohida aholi punktlari ana shunday ko'makchi aholi punktlaridir. Uychi tumanida bunday aholi punktlariga Qizilravot suv nasos stansiyasi, Uychi temir yo'l bekati, Uychi o'rmonchilik aholi punktlari misol bo'ladi.

Ko'chib yuruvchi yoki ko'chmanchi aholi punktlari. Bunday aholi punktlari yangi o'zlashtirilayotgan quriq va bo'z yerlarda, chorvachilik bilan yaylov va o'tloqli mintaqalarda, o'rmon ho'jaliklarda rivojlanadi. Bunday aholi punktlari ko'pincha Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmaniston respublikalarining chorvachilik yaylov va o'tloqlarida rivojlangan.

Mavsumiy aholi punktlari. Bu tipdagi aholi punktlari qishloq ho'jalik ishlari mavsumiy rivojlanadigan, yangi o'zlashtirilgan mintaqalarda rivojlanadi. Odamlar qishloq ho'jaligi ishlari rivojlanishi bilan bahor oylarida aholi punktlariga

ko'chib boradilar, qish oylarida esa ular o'zlarining doimiy yashaydigan aholi punktlariga ko'chib keladilar. Aholi punktlarining ko'chmanchi va mavsumiy tiplari Uychi tumani hududida deyarli rivojlanmagan.

Turli tip aholi punktlari bir-biri bilan aloqada rivojlanib, aholi yashash joylarining hududiy tizimini hosil qiladi. Shahar va qishloq uchun ham aholi punktlarini geografik jihatdan o'rganganda, ularning doimiy aloqada bo'lgan bir bitun tizim deb qarash, ularning hududiy mehnat taqsimotidagi o'rnini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Shu o'rinda Uychi tumanidagi barcha tipdagi aholi punktlari o'zaro aloqada rivojlanib, yagona aholi punktlari tizimini hosil qiladi.

1.2 Aholi punktlarini shakllanishi va rivojlanishi

Uychi tumani hududi azaldan kishilar yashab kelgan ko'xna joylardan biri hisoblanadi. Biroq uning hududi bo'ylab aholi bir davrda o'rnashib aholi punktlarini hosil qilmagan. Chunki, aholi joylashishida hududning rel'ef va iqlim sharoitlarini qulayligi, suv hamda boshqa turli resurslar bilan ta'minlanganligi muhim rol o'ynaydi. Tuman hududining aholini joylashishiga ta'sir qiluvchi yuqoridagi omillar bo'yicha quyidagi mintaqalarga ajratish mumkin.

1. Aholi qadimdan yashab kelgan hududlar. Bu mintaqaga tuman hududining tog' oldi adir mintaqasidan Norin va Sirdaryo atrofidagi tekislik orasidagi joylar kiradi. Bu yerlarni shimoldan Shimoliy Farg'ona va Andijon-Namangan temir yo'lining Uychi tuman qismi, janubidan esa Norin va Sirdaryo atrofidagi tekislikdan keyin boshlanadigan jar(yor)lar chegaralab turadi. Bu mintaqada tuman hududining shimoliy adir qismidan oqib keluvchi soylar jumladan, Chortoqsoy yoyilmasi unumdor tekislikni hosil qiladi. Shahar va qishloqlarni rivojlanishi uchun va sug'orma dehqonchilik qilish uchun ham bu yerlar juda qulay. Bu holat tumanning boshqa mintaqalariga nisbatan bu yerlarga aholini azaldan o'rnashib, punktlarni hosil bo'lishiga olib kelgan. Bu mintaqada tuman aholi mansillarining asosiy qismi va ularning markazlari: Mashad, O'nhayat, Yorkatay, Yorqo'rg'on, Uychi, Do'stlik, Birlashgan va Hizirobod kabilar joylashgan.

2. X-XV asrlardan keyin o'zlashtirilib, aholi yashay boshlagan mintaq.

Bunga Norin va Sirdaryoning o'ng qirg'og'idan to shimoldagi jarlik(yorlar)gacha, ayrim yerlarda Namangan-Uchqo'rg'on avtomagistral yo'ligacha bo'lgan joylar kiradi. Bu mintaqada Jiydakapa, Axsi, Daxiya ota, Yorqo'rg'on QFYning Qiziloy mahallasi, Do'stlik, Birlashgan va Hizirobod QFYlarining janubdagi qishloq va mahallalari joylashgan.

3. XX asrning boshlaridan o'zlashtirila boshlanib aholi punktlari shakllanayotgan mintaq. Bu mintaqadagi yerlar ikkinchi jahon urushi, undan keyingi, ayniqsa, o'tgan asrning 70 yillaridan boshlab jadal o'zlashtirila boshlandi. O'tgan asrni 70 yillaridan keyin Katta Namangan kanalini qurilishi tog' oldi adir yerlarini keng ko'lamda o'zlashtirilishiga olib keldi. Natijada Sh.Rashidov nomli va Sohibkor fermer ho'jaliklari tashkil topdi. Bu yerlarda Yangiyer, Uychi suv tindirish tuguni va qator tarqoq aholi punktlari qaror topmoqda.

Darhaqiqat, yuqoridagilardan ma'lum bo'ldiki, tuman hududining Namangan-Uchqo'rg'on avtomobil yo'li va Shimoliy Farg'ona kanali atrofidan to ularning janubidagi jarlar oralig'iga aholi uzoq o'tmishdan joylashgan. Bu kenglikdagi yerlarda ham aholi joylashishi tarixida davriy farqlar mavjud. Jumladan, XX asrning 20-30 yillarigacha Namangan shahri va Uychi QFY oralig'idagi hududlarda aholi azaldan yashab aholi punktlarini hosil qilgan. Bu joylarda aholi o'rnashib punktlarni hosil qilgan qadimgi qishloqlar – Mashad, Fayziobod, Yorqo'rg'onidir. Ikkinchi jahon urushi arafasida Shimoliy Farg'ona kanali va Namangan-Uchqo'rg'on yo'nalishidagi avtomobil yo'llari o'tkazilishi qadimgi aholi punktlarini tutashtiruvchi yangi punktlarni tashkil topishiga olib keldi. Kanal va yo'lni qurilishi Uychi-Uchqo'rg'on oralig'idagi aholi punktlarini (Soku, Boyag'on, G'ayrat, Birlashgan, Qizilravot va h.k.) qaror topishi hamda jadal rivojlanishiga ta'sir qildi.

Tarixiy manbalarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, eramizning X-XII asrlariga qadar Sirdaryo va uningirmog'i Norin daryo juda keng uzan hosil qilib oqqan. Keyinchalik sug'orma dehqonchilik maydonlarini jadal kengaytirilishi Norin daryosidan qator kanal va ariqlarni o'tkazilishiga olib keldi. Natijada Sirdaryo va

uning irmog'i Norin daryosining suv sarfi (oqimi) kamayib, uzanlari qisqargan. Daryoning suvdan bo'shagan o'zanlari ko'l, botqoq va qamishzorlarga aylangan. VIII-X asrlarda, ayniqsa X-XV asrlarda bu hududlarning qulay joylarida turli aholi, qabila va elatlari ornasha boshlagan. Ayniqsa, shu davrlarda ko'hna Turkistonning quyi Amudaryo mintaqasidan qoraqalpoq halqlarini ko'chib kelib o'rnamishi kuchaygan. Bular mahalliy aholi bilan aralashib tub joy aholi va ularning yashagan punktlarini tashkil qilishgan. Natijada Axxi, Jiydakapa, Daxiya ota, Qiziloy kabi aholi punktlari qaror topgan. Shimoliy Farg'ona kanali va Namangan-Uchqo'rg'on temir yo'lidan shimoldagi tog' adir yerlarida aholi ikkinchi jahon urushi, ayniqsa, XX asrning 70 yillaridan keyin ornasha boshladi. Bu joylarda bog'dorchilik, uzumchilik va sabzavotchilikka ixtisoslashgan Sh.Rashidov nomli va Sohibkor fermer ho'jaliklarini tashkil etilishi aholini joylashishi va qator kichik doimiy hamda mavsumiy aholi punktlarini qaror topishiga olib keldi.

Hozir Uychi tumani aholi punktlari tizimida 8 ta qishloq fuqarolar kengashi (QFY), 13 ta shaharchalar va ularning tarkibida esa 65 ta qishloq va mahallalar mavjud (1-jadval).

**Uychi tumani aholi punktlari haqida ma'lumot
(2014 yil, yanvar)**

№	Aholi punktlari	Maydoni, kv.km.	Aholisi, ming kishi hisobida	Zichligi har bir kv.km.ga kishi hisobida	Aholi punktlarining tiplari					
					1*	2*	3*	4*	5*	6*
	Tuman bo'yicha jami	309,8	205,3	663	62	16	15	28	-	5
	Shu jumladan:									
1	Uychi QFY	33,3	18,6	559	7	-	2	4	-	-
2	Yorqo'rg'on QFY	27,0	26,9	996	7	2	1	3	-	-
3	Yorkatay	21,0	24,2	1152	6	1	1	4	-	-
4	Mashad	22,0	27,2	1236	8	2	1	2	-	1
5	G'ayrat	23,0	14,5	630	4	3	1	3	-	-
6	Birlashgan	38,0	8,8	232	3	3	2	4	-	2
7	Qizilravot	45,0	23,1	513	9	3	3	3	-	2
8	Jiydakapa	50,5	27,7	549	9	2	2	4	-	-
9	Uychi shaharchasi	30,0	18,1	603	5	-	1	-	-	-
10	O'nhayat shaharchasi	20,0	16,2	810	4	-	1	1	-	-

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Uychi tumani yuqori demografik salohiyatga ega mintaqa hisoblanadi. Uning hududida viloyat aholisini 9,0 foizi yashaydi. Aholi zichligi eng yuqori bo'lib, har bir km kv ga 663 dan ortiq kishi to'g'ri keladi. Uning ayrim qishloqlarida (Mashad, Yorkatay, Yorqo'rg'on) aholi zichlik ko'rsatkichi 2 marta yuqori va 1250 kishini tashkil etadi. Shuningdek, tumanda asosan qishloq aholi punktlari keng rivojlangan. Qishloqqa sanoatni kirib borishi va ijtimoiy infrastrukturallarni tez rivojlanishi bilan mavjud. Uychi va O'nhayat shaharchlari qatoridan G'ayrat, Bo'yg'on, Birlashgan, Jiydakapa, Aysi, Kichik qishloq, Ziyokor, Soku, Mashad, Fayzobod va Churtuk kabi qishloqlar shaharcha maqomini oldilar. Shuningdek, tumanda ko'makchi aholi punktlari ham rivojlanmoqda. Ular jumlasiga Qizilravot QFY hududi tarkibidagi Uychi nasos

1* - Fuqarolar yig'ini tarkibidagi kichik qishloqlar;

2* - Tarqoq qishloq aholi punkti;

3* - Aralash aholi punkti;

4* - Tipik qishloq ahili punkti;

5* - Ko'chib yuruvchi aholi punktii;

6* - Mavsumiy aholi punktii.

stansiyasi, Uychi temir yo'l bekati va Uychi o'rmonchilik aholi punktlari kiradi. Tuman aholisini azaldan utroq bo'lgani tufayli ko'chmanchi aholi punktlari deyarli rivojlanmagan.

Uychi tumani aholi punktlarining paydo bo'lishi va ularning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotidagi o'zgarishlarni tahlili ularni ikki davr bosqichiga ajratishni taqazo etadi.

1. XX asrning 70 yillarigacha bo'lgan davr.

Bu davrda tumandagi barcha aholi punktlari shakllangan, lekin ular aholi yashash joyining tipik qishloq shaklida bo'lgan. Bu davrda O'nhayat, Jiydakapa, Hizirobod QFY lari, xatto Uychi shaharchasiga sanoatni ayrim korxonalarini kirib kela boshlagan. Jumladan, O'nhaayatda shoyi to'qish, Jiydakapada temir-beton buyumlari, Hiziroboda esa paxta tozalash korxonalarini ishlay boshlagan.

2. XX asrning 70 yillardan keyingi davr.

Bu davrda tuman hududidagi ayrim QFY lari hududi kengaydi. Jumladan, Mashad QFYning tog'oldi adir joylaridagi Sherbuloq massivida, Do'stlik QFYdagi Sohibkor fermer ho'jaligi, Hizirobod QFYning Sh.Rashidov nomli fermer ho'jaligi hududida aholi joylashuvining yangi shakli – tarqoq aholi punktlari paydo bo'ldi. Bu esa tuman aholi punktlarining gorizontol kengayishiga olib keldi va ayrim aholi punktlarining salmog'i oshdi.

**Uychi tumani aholi punktlarini tasniflash
(2014 yil, 1 yanvar)**

№	Aholi punktlari guruhi	Aholi punktlari soni va aholisi (ming kishi hisobida)	Jamiga nisbatan foiz hisobida*
	Jami	$\frac{10}{205,3}$	100,0
	Shu jumladan	-	-
1	0-5000 gacha	-	-
2	5001-10000 gacha	$\frac{1}{8,8}$	$\frac{10,0}{4,2}$
3	10001-15000 gacha	$\frac{1}{14,5}$	$\frac{10,0}{7,1}$
4	15001-20000 gacha	$\frac{3}{52,9}$	$\frac{30,0}{25,8}$
5	20000 kishidan ortiq	$\frac{5}{129,1}$	$\frac{50,0}{62,9}$

*- Sur'atda aholi punktlari, mahrajida aholisi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tuman aholisining 62,9 foizidan ortig'i 20000 dan ortiq kishiga ega bo'lgan aholi punktlariga to'g'ri keladi. Bu aholi punktlariga Yorqo'rg'on, Mashad, Yorkatay, Hizirobod va Jiydakapa QFY lar kiradi.

15000 dan 20000 gacha kishiga ega bo'lgan aholi punktlariga esa – Uychi va O'nhayat shahrchalari kirib, ularda tuman aholisining 25,5 foizidan ortig'i yashaydi.

Tumanda 10000 dan 15000 gacha bo'lgan aholi punktlari 10,0 foizni tashkil etadi. Umuman olganda, Uychi tumani aholi punktlari asosan mujassamlashgan (to'plangan) holda rivojlanganligi bilan xarakterlanadi.

II-BOB. UYCHI TUMANI AHOLI PUNKTLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY RIVOJLANISHI

2.1 Aholisi va mehnat resurslari

Ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etish va uni oqilona rivojlantirish hamda yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun aholi soni, uning o'sish manbalari va sur'atini bilishni taqazo etadi. Aholi soni, uning o'sish sur'atlarini mukammal o'rganib, ishlab chiqarishni hududiy joylashtirilsa yuqori samaradorlikka erishiladi. Aholi ikki omil hisobida o'sadi. Tug'ilish, o'lish va ularning qoldig'i hisoblangan tabiiy ko'payish hamda ko'chib kelish, ko'chib ketish va ularning qoldig'i yoki migratsiya hisobiga o'sadi.

Mamlakatlar, iqtisodiy rayonlar, viloyat, tuman aholi punktlarining aholisi soni esa tabiiy ko'payish bilan birga migratsiya hisobiga o'sadi. Albatta, bu omillar yer shari va uning qismlarida aholining umumiy o'sishiga turli darajada ta'sir qiladi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mintaqalarda (G'arbiy Evropa mamlakatlari, AQSH, Yaponiya va boshqalar) aholi sonining o'sishiga migratsiya jarayoni asosiy omil hisoblanadi. Chunki, bu mamlakatlarda aholining tabiiy ko'payish ko'rsatkichlari juda past. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy taraqqiyot bilan ijtimoiy yuksalish o'rtasida katta farq kuzatilmoqda. Bu esa iqtisodiyotni rivojlanish sur'ati aholining o'sish sur'atidan orqada qolayotgani bilan izohlanadi. Bu holat rivojlanayotgan mamlakatlarda qator ijtimoiy demografik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi o'rtasida tug'ilish va tabiiy ko'payish sur'ati pasaymoqda. Bunday demografik holat Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan O'zbekiston Respublikasi hududlarida ham kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida rivojlanmoqda. O'z navbatida mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichma-bosqich amalgam oshirilmoqda. Bunda iqtisodiyotni mukammal poydevorini barpo etish hamda aholini ijtimoiy himoya qilish ustivor vazifa qilib belgilanmoqda.

O'zbekiston kelajagi buyuk davlatga aylanishi va uning mustahkam poydevorini yaratish sog'lom avlod qo'lidadir. Sog'lom avlodni hosil qilish esa iqtisodiy baquvvat va ijtimoiy himoyalangan aholining zimmasidadir. Shuning uchun ham 2014 yilni Respublikamiz Prezidenti I.Karimov "Sog'lom bola" yili deb e'lon qildi. Iqtisodiy baquvvat va ijtimoiy barkamol oilada sog'lom va yetuk farzand tarbiyalanadi. Hozir mamlakatimizning barcha viloyat va tumanlarida "Sog'lom bola uchun kurash" asosiy ijtimoiy siyosat bo'lib qolmoqda. Darhaqiqat, bu holat respublika aholisining birmuncha barqaror rivojlanishini ta'minlamoqda.

Uychi tumani aholisi qadim zamonlardan yashab kelgan yerli halq avlodidir. Keyingi 100-150 yil davomida tuman aholisining o'sish tarkibi va hududiy joylashishi tubdan o'zgardi. Aholi o'sishida o'lim sur'ati pasayib, tabiiy ko'payishi oshdi. Tarkibida esa yoshlarning (0-15 yoshdagilarni) salmog'i ko'paydi. Milliy tarkibida kelgindi millat (rus, tatar, koreys, ukrain va boshqa) vakillarning xissasi kamaydi. Ayniqsa, aholining hududiy joylashishida katta o'zgarishlar bo'ldi. Tuman hududining janubidagi Norin daryosiga yaqin yerlar hamda tog'oldi mintaqalari (adir) o'zlashtirilib aholi joylashdi va qator yangi aholi punktlari paydo bo'ldi.

Keyingi yillarda tuman aholisi barqaror sur'atda o'smoqda. 1992-2013 yillardagi yillik o'sish 2,3 foiz bo'lib, bu ko'rsatkich viloyat aholisining o'sish sur'ati bilan tengdir.

Namangan viloyati aholisining 1992-2013 yillardagi o`shishi

№	Tumanlar	1992 yil, ming kishi hisobida	2013 yil, ming kishi hisobida	1992 yilga nisbatan 2013 yilda o`shishi, foiz hisobida	Viloyat aholisidagi salmog`i, foiz hisobida
	Viloyat bo`yicha:	1652,2	2458,7	149,0	$\frac{100,0}{100,0}$
	Namangan shahri	341,0	467,9	137,2	$\frac{20,6}{19,7}$
1	Mingbuloq	72,0	113,9	158,2	$\frac{4,3}{4,4}$
2	Kosonsoy	112,0	180,9	161,5	$\frac{6,8}{7,0}$
3	Namangan	127,0	207,7	163,5	$\frac{7,7}{7,7}$
4	Norin	99,0	144,6	146,0	$\frac{6,0}{5,9}$
5	Pop	127,0	193,1	152,0	$\frac{7,7}{7,7}$
6	Uychi	136,0	202,9	149,2	$\frac{8,2}{8,3}$
7	To`raqo`rg`on	131,0	194,7	148,6	$\frac{7,9}{7,9}$
8	Uchqo`rg`on	107,0	151,6	147,3	$\frac{6,5}{6,4}$
9	Chortoq	120,0	175,7	146,4	$\frac{7,3}{7,1}$
10	Chust	159,0	233,5	146,8	$\frac{9,6}{9,3}$
11	Yangiqo`rg`on	121,0	196,2	152,1	$\frac{7,4}{7,8}$

Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Aholining o'sishi asosan tabiiy ko'payish hisobiga bormoqda. Har ming kishi hisobiga tug'ilish 34 promille, o'lim 7,0 promille, tabiiy ko'payish esa 27 promilleni tashkil etadi.

Tuman hududi ko'lamida aholining yuqori sur'atlar bilan o'sishida Mashad, Jiydakapa qishloq kengashlari hamda O'nhayat shaharchasi ajralib turadi.

4-jadval

Uychi tumaning tabiiy ko'payishi (2014 yil, 1 yanvar 1000 kishi hisobiga).

№	Ma'murirMa`muriy-xududiy bo'linmalar nomi	Tug'ilish	o'lim	Tabiiy ko'payish
	Tuman bo'yicha: SHu jumladan:	22,6	4,6	17,9
1	Uychi sh.	20,3	3,8	16,8
2	O'nhayat sh.	25,4	4,2	24,3
3	Uychi QFY	19,8	4,6	19,2
4	YOrqo'rg'on QFY	20,6	4,8	24,3
5	YOrkatay QFY	16,2	4,1	22,1
6	Ma`shad QFY	26,3	4,0	23,5
7	G'ayrat QFY	19,8	4,7	15,7
8	Birlashgan QFY	20,1	3,2	22,8
9	Jiydakapa QFY	23,2	5,4	19,0
10	Qizilrovot QFY	24,0	6,2	24,5

Uychi tumani statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2014 yilning yanvar ma'lumotiga ko'ra, tuman mehnat resurslarining umumiy soni 125,2 ming kishi bo'lib, shundan xalq xo'jaligida band aholi 69,1 ming kishini takshil etdi. Bu esa band mehnat resurslarining 66,1 foizidir.

**Uychi tumani mehnat resurslarining xalq xo'jaligi tarmoqlarida
taqsimlanishi
(2010 yil, 1 yanvar' ma'lumotiga ko'ra).**

Xalq xjaligi tarmoqlari	Band mehnat resurslari soni, ming kishi hisobida	Jamiga nisbatan foiz xisobida
Xalq xo'jaligi – jami SHundan:	69,1	100,0
Sanoat	5,4	7,8
Qishloq xo'jaligi	15,0	21,7
Qurilish	3,9	5,6
Transport va aloqa	2,3	3,3
Savdo va umumiy ovqatlanish	4,0	5,7
Sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot va sport	3,9	5,6
Uy – joy kommunal xizmati va aholiga xizmat ko'rsatish	1,7	2,4
Xalq ta'limi, madaniyat va san`at	7,4	10,7
Boshqaruv, moliya va sug'urta	4,4	6,4
Boshqa tarmoqlar	21,3	30,9

Uychi tumani statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mehnat resurslari jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchidir. Mehnat resurslarining soni, o'sish sur'ati, uning malakasi va ma'lumot darajasi halq hojaligini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mintaqa yoki aholi punktining resurslari bilan ta'minlanish darajasi halq ho'jaligining hududiy tarkibiga va tarmoqlar hosil bo'lishiga ta'sir qiladi.

Aholining mehnatga yaroqli qismiga mehnat resurslari deyiladi. Uychi tumanida jami aholining 52 foizini mehnat qilish yoshidagilar tashkil etib, shundan 97,3 foizini ijtimoiy ishlab chiqarishda faol qatnashishi mumkin bo'lgan mehnat resurslaridan iborat. Mehnat resurslarining qariyb 73,0 foiz iqtisodiy faol kishilardir. Iqtisodiy faol aholiga ishlab chiqarishda, shaxsiy yordamchi ho'jaligida band bo'lganlar hamda harbiy xizmatdagi kishilar kiradi.

Mehnat resurslaridan foydalanishning ikki o'zaro bog'liq asosiy tamoyillari mavjud:

- a) aholining mehnatga yaroqli qismini ish bilan to'liq band qilish;
- b) mehnat resurslaridan xalq ho'jaligida omilkorlik bilan foydalanish;

Mehnat resurslarining mehnat faoliyatiga qarab uch qismga bo'linadi.

1. Ijtimoiy mehnat.
2. Ijtimoiy shaxsiy mehnat
3. Shaxsiy mehnat.

Ijtimoiy mehnat kishilarning ijtimoiy mehnat taqsimoti bilan bog'liq faoliyati. Ijtimoiy shaxsiy mehnat – shaxsiy yordamchi ho'jalikda bandlik bo'lib, bunda yetishtirilgan mahsulotning bir qismi sotiladi. Shaxsiy mehnat deb uy-ro'zg'or va shaxsiy yordamchi ho'jaligidagi bandlikka aytiladi.

Aholining mehnatga yaroqli qismini to'liq band qilish deb, kishilarning ishga bo'lgan talabini ish joylari bilan to'liq qondirishga aytiladi. Aholini mehnat bilan to'liq bandligining asosiy ko'rsatkichi ishsizlikning bo'lmasligidir. Shu vaqtgacha ijtimoiy mehnat asosiy mehnat bo'lib hisoblab kelingan. Lekin aholining ma'lum bir qismining shaxsiy yordamchi ho'jalikda va uy-ro'zg'or ishlarida bandligi (bolalar tarbiyasi) ham jamiyat uchun zarur mehnat hisoblanadi. Shunday qilib, aholining to'liq bandligi deb aholining ijtimoiy mehnat bilan bir qatorda shaxsiy va yordamchi ho'jalikda mashg'ulliligiga aytiladi.

Aholining bandlik darajasi va uning ijtimoiy mehnat, shaxsiy yordamchi ho'jalikda mashg'ullik nisbati ijtimoiy ishlab chiqarishning kadrlarga bo'lgan talabi, ularning soni, aholining mehnatga yaroqli qismini ishlab chiqarishda qatnasha olish imkoniyatining mavjudligiga, ya'ni oila kattaligi va daromadi, oilada bolalar soni, maishiy xizmatning rivojlanganlik darajasi va boshqalar bog'liq. Aholining to'liq bandlik mezoni vaqt o'tishi bilan hududlar bo'yicha o'zgarib turadi.

Mehnat resurslaridan omilkorlik bilan foydalanish iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir. U sifat va son mezonlari yordamida aniqlanadi. Ularga korxonalarining ishchi kuchi bo'lgan talabi bilan aholini ishga

yaroqli qismini halq ho'jaligi tarmoqlari (tumanlar, shaharlar, qishloqlar va aholi punktlari) bo'yicha optimal taqsimoti; turli soha mutaxassisleri soni halq ho'jaligining tarmoqlari va ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga moslashtirish; mehnatni texnik jihatdan qurollantirish; kadrlar malakasini oshirish kiradi. Mehnat resurslaridan omilkor foydalanish ko'rsatkichlaridan biri – mehnat unumdorligidir. Jamiyatdagi har qanday natijali va sifatli mehnat – ijtimoiy mehnat hisoblanadi. Mehnat unumdorligi esa muayyan vaqt birligida ishlab chiqarilgan mahsulot soni miqdori bilan o'lchanadi.

Mehnat resurslarini rejalashtirishda va uni o'zgarishda balans usuli katta ahamiyatga ega. Mehnat resurslari hisobot balansi quyidagicha tuziladi.

a. Mavjud mehnat resurslari.

1. Aholining mehnatga yaroqli qismi (nogiron va nafaqaxo'rlardan tashqari aholining mehnatga layoqatli qismi). Uychi tumani mehnat resurslarini qismi mehnat qilish yoshdagilarni 92,4 foizini tashkil qiladi. Mehnat resurslari orasida ko'plab yuqori malakali qishloq xo'jaligi mutaxassisleri - agronomlar, zootexniklar, suvchilar, pillakorlar, g'allakorlar, chorvadorlar, sanoat ishchi xizmatchilari – muxandislar, payvandchilar, tokarlar, sleserlar, chilangarlar, qo'li gul quruvchilar – o'ymakorlar, ganchsozlar va turli kasb egalari mavjud. Bularning hammasi tuman agrosanoat xo'jaligini majmuini va samarali rivojlantirishining asosi bo'ladi.

2. Ishlayotgan nafaqa oluvchilar, nogiron va o'smirlar. Tuman bo'yicha ishlayotgan nafaqaxo'rlar, nogironlar va o'smirlar 7,6 foizdir. Mehnat resurslari soni, sifati, ularning tayyorgarligi va mehnat ko'nikmalari turli mintaqalarda turlichadir. Jumladan, Uychi tumanida aholining bandlik darajasi halq ho'jaligining tarkibi va ayrim tarmoqlarning rivojlanish darajasi bilan bog'liq. Mehnat resurslari tuman halq ho'jaligi tarmoqlarida taqsimlanishi quyidagi jadvalda berilgan.

**Tuman halq ho'jaligi tarmoqlari bo'yicha mehnat resurslarining
taqsimlanishi**

Tarmoqlar	Soni	Jamiga nisbatan foiz hisobida
JAMI:	93900	100
Shundan:		
Moddiy ishlab chiqarish	34500	36,7
Nomoddiy ishlab chiqarish	10700	11,4
Qishloq ho'jaligi	18600	19,8
Sanoat	7900	8,4
Uy-joy communal ho'jaligi va maishiy xizmat	1250	1,3
Savdo va umumiy ovqatlanish	1800	1,9
Fan, maorif, madaniyat	4100	4,4
Tibbiy xizmat, jismoniy tarbiya	2950	3,1
Qurilish	2600	2,8
Boshqa tarmoqlar	9500	10,1

Uychi tumani statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Mehnat resurslarining tuman Mehnat resurslarining tuman ho'jaligi tarmoqlarida taqsimlanishini tahlili shuni ko'rsatdiki, mavjud mehnat resurslarining qariyb 86,0 foiz banddir. Ayniqsa, ho'jalikning muhim tarmog'i hisoblangan agrar sohada 19,8 foizni, sanoatda esa 8,4 foizni, moddiy ishlab chiqarishda 36,7 foiz, savdo va umumiy ovqatlanishda 1,9 foizni, fan maorif sohasida 4,4 foizni, tibbiy xizmat, jismoniy tarbiya va sport 3,1 foizni, qurilishda

2,8 foizni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkichlar tuman industrial salohiyatini pastligidan dalolat beradi. Shuningdek, tuman ho'jalik majmuida aholining maishiy xizmat sohasi bo'yicha ham yaxshi rivojlanmagan.

Keyingi yillarda tuman aholisining barqaror o'sishi mehnat resurslari salmog'ini ko'payishiga olib kelmoqa. Biroq, mehnat resurslarini o'sishi bilan tuman ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish sur'atlari o'rtasida katta tafovut kuzatilmoqda. Buni ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishini orqada qolishi bilan izohlash mumkin. Bu holat esa mavjud mehnat resurslarini to'la bandligini ta'minlamayotir. Ayniqsa, xotin-qizlarni ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligi talab darajasida emas. Ishlab chiqarishda band aholi o'rtasida xotin-qizlarning salmog'i 32,6 foizni tashkil qiladi. To'g'ri, keyingi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarda mehnat resurslarini ho'jalik tarmoqlarida ish bilan barqaror ta'minlash imkoniyatini yaratmoqda. Shunga qaramasdan tumanda mehnatga layoqatli aholining qariyb 20,0-22,0 foizi ijtimoiy ishlab chiqarishda band emasligi aniqlangan.

Bu holat tuman ho'jalik tarmoqlarini rivojlantirishda tub islohotlar qilishni taqozo etadi. Kichik korxonalar qurish, mahalliy va chet el sarmoyalarini jalb qilish, qishloq ho'jaligida fermer ho'jaliklarini keng ko'lamda qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish asosida mavjud ishchi kuchlarini band qilish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlash lozim. Oddiygina tikuvchilik sexlarini barpo qilish, non ishlab chiqarish, qandolatchilik, poyafzal tikish va ta'mirlash korxonalari kabi kichik korxonalarni tashkil etish ham aholini ma'lum qismini ish bilan ta'minlashga olib keladi. Tumanning O'nhayat, Uychi shaharchasi, Mashad, Yorkatay, Yorqo'rg'on, Jiyyakapa qishloqlarida kichik korxonalar faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilgan, bu esa shu hududlarda ishsizlar sonini bir oz bo'lsada kamayishiga olib kelmoqda. Mehnat resurslarini ish bilan ta'minlashda yangi ish joylarini tashkil qilish bilan birga aholini rejali migratsiyasini uyushtirish lozim. Tuman hududidagi G'ayrat, Do'stlik va Qizilravot qishloqlaridan tog'oldi adir mintaqasida yangi o'zlashtirilgan joylarga aholini rejali migratsiyasini tashkil etish

lozim. Buning uchun bu yerlarda aholini o'rnashib qolishi uchun ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish darkor. Shuningdek, aholining tumanlararo va viloyatlararo (Sirdaryo, Jizzax, Qashqadaryo viloyatlari ko'zda tutilmoqda) migratsiyasini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

2.2 Tuman aholi punktlarining iqtisodiyoti

Aholi punktlari kishilarning to'plangan yashash joylari bo'lishi bilan birga moddiy va ma'naviy boyliklar yaratish markazi ham hisoblanadi. Albatta, aholi punktlarining ho'jalik faoliyatlari bir-biridan farq qiladi. Shahar joylari kishilarning doimiy yashash maskanlari bo'lishi bilan birga, ular o'sha maskandagi ho'jalik tarmoqlarida band bo'ladilar. Qishloq joylarida esa kishilar o'z xonadonlarida faoliyat ko'rsatish bilan birga yashash joylarida ma'lum masofadagi dexqon yoki chorvachilik ho'jaliklarida ishlaydilar. Aksariyat qishloq joylarida yashayotgan mehnatning ma'lum qismi resurslari mayatniksimon migratsiyada kattalashib, yaqin atrofdagi shahar va katta qishloq aholi punktlaridagi ish joylarida bo'ladilar.

Uychi tumanida aholi yashash joylarining asosiy shaklini 8 ta qishloq fuqarolar kengashi va 13 ta shaharcha tashkil etadi. Bular aholi joylashuvining asosiy shakllari va ijtimoiy ishlab chiqarishning markazlaridir. Aholi punktlari – Mashad, Yorkatay, Yorqo'rg'on, Uychi, Do'stlik, G'ayrat, Hizirobod, Jiydakapa qishloq fuqarolar kengashlari va Uychi hamda O'nhayat shahrchalaridan iborat.

Bu aholi punktlari tuman iqtisodiyotining asosiy markazlari bo'lib, ualrda asosan qishloq ho'jaligi mahsulotlari yetishtiriladi va qayta ishlanadi. Bundan tashqari, ularda moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishning qator korxonalari, muassasalari hamda boshqa tarmoqlari rivojlangan.

Tuman Namangan viloyati ko'lamida iqtisodiy jihatdan bir muncha jadal rivojlanib kelayotgan tumanlardan biri. Viloyat mehnat taqsimotida qishloq ho'jaligi mahsulotlari – paxta, pilla, g'alla, meva, uzum va sabzavot, chorvachilikning go'sht, sut, sanoat ishlab chiqarishda oziq-ovqat, mashinasozlik hamda qurilish materiallari yetkazib berish bilan qatnashadi.

Uychi tumani tashkil topgan dastlabki yillarda bironta ham sanoat korxonalar bo'lmagan. Hozirgi kunga kelib o'ndan ortiq yirik sanoat korxonalari mavjuddir. O'nhayat "Ipakchi" xissadorlik jamiyati, Uychi to'quv fabrikasi, noto'qima materiallar fabrikasi Jiydakapa "Temir-beton buyumlari" zavodi, Jiydakapa qishloq ho'jaligi mashinasozligi zavodi, ip yigiruv-to'quv fabrikasi, non ishlab chiqarish kabi yirik sanoat korxonalari shular jumlasidandir.

Sanoat korxonalarida tuman yalpi mahsuloti hajmining 30,6 foizini ishlab chiqariladi. Ularda 8600 dan ortiq kishi samarali mehnat qilmoqda. Bu korxonalarda temir-beton buyumlari, gaz plitalari, shoyi gazlama, atlas, beqasam, noto'qima mato, poyafzal va ko'plab halq iste'moli mollari ishlab chiqarishga katta e'tibor bermoqda.

Shu bilan birga sanoatni qishloqqa olib kirish, kichik korxonalar tashkil qilish tumanda olib boriladigan dolzarb ishlardanbiri bo'lib qolmoqda. Chunki tumanda ishsizlar juda ko'pchilikni tashkil etadi.

7-jadval

Uychi tumanidagi faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va Xususiy firmalar (2014 yil yanvar)

№	Faoliyat turi	Korxonalar soni		Ishlavchilar soni
		Ro'yxatdan o'tgani	Ishlab turgan	
1	Qishloq ho'jalik mahsulotlar	11	9	103
2	Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish	35	30	296
3	Xalq iste'moli mollari	34	24	327
4	Qurilish materiallari	11	10	104
5	Savdo va umumiy ovqatlanish	180	145	688
6	Qurilish va ta'mirlash	7	5	81
7	Transport xizmat ko'rsatish	40	38	1200
8	Boshqa turlar	8	6	61
	Jami:	325	267	2860

Uychi tumani statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki tumanda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va xususiy firmalar asosan qishloq ho'jalik mahsulotlari bo'yicha 11 ta, maishiy xizmat ko'rsatish 35 ta, halq iste'moli mollari bo'yicha 34 ta, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini 180 ta ro'yhatdan o'tgan, lekin hozir ularning ayrimlari ishlaymagan.

Keyingi yillarda tumanning sanoat ishlab chiqarish quvvati sezilarli oshirilmoqda. Jumladan, O'nhayat "Ipakchi" xissadorlik jamiyati Rossiyaning Krasnodar o'lkasidagi A/O "Yugteks" firmasi hamkorligida ishlab chiqarish hajmini kengaytirmoqda. Hizirobod paxta zavodi qayta ta'mirlanib, ishlab chiqarish quvvatini 25 000 tonnaga yetkazildi.

Uychi shaharchasi zaminida tumanning barcha xom ashyo yetkazib beruvchi fermer va xususiy ho'jaliklari, korxonalarini va boshqa ho'jalik shaxobchalari bilan o'zaro aloqada rivojlanayotgan sanoat punkti rivojlanmoqda. Uychi endi shakllanayotgan sanoat punkti bo'lib, u ko'p markazlilik bilan xarakterlanadi. Uning tarkibida bir muncha rivojlangan Jiydakapa, Hizirobod va O'nhayat sanoat aholi punktlari mavjud.

Uychi tumani Namangan viloyatidagi boshqa sanoat punktlariga qaraganda ko'p tarmoqlilik bilan ajralib turadi. Uning sanoat ishlab chiqarishda yengil, oziq-ovqat, mashinasozlik va qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining mavjudligi xarakterlidir.

Tuman iqtisodiyotining asosiy tarmog'ini qishloq ho'jaligi tashkil etadi. Paxtachilik qishloq ho'jaligida yetakchi tarmoq hisoblanadi. Hozir g'allachilik ham yetakchi tarmoqqa aylandi. Tumanning qishloq ho'jaligida foydalaniladigan umumiy yer fondi 29,9 mingga, shundan 20 918 ga sug'oriladi va haydaladi.

Sug'oriladigan yerning 7620 gektariga paxta, 3706 gektariga g'alla, 30 gektariga kartoshka, 33 gektariga poliz, 313 gektar sabzavot, 2893 gektar yem-hashak ekinlari ekiladi. 2032 gektar tokzor va mevazor yerlar mavjud. 2032 gektar tokzor va mevazor yerlar mavjud.

Hozirgi kunda tumanda 856 ta fermer va dehqon fermer ho'jaliklari, 2 ta bo'rdoqchilik ho'jaligi, 1 ta parrandachilikka ixtisoslashgan xissadorlik jamiyatlari mavjud bo'lib, ularda qishloq ho'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Qishloq ho'jaligida mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish maqsadida uning middoy texnika bazasi mustahkamlanmoqda. Ayniqsa, mustaqillik yillarida bu borada katta ijobiy ishlar qilinib, ekin maydonlarini kengaytirish bilan birga, ulardan foydalanish tarkibi o'zgardi. Jumladan, 1971 yili paxta ekin maydoni 14,9 ming gektarni tashkil etgan bo'lsa, 1991 yil 9,5 mingga, 2013 yili esa 8,1 ming gektar bo'ldi. Paxtachilikdan bo'shagan ekin maydonlari g'alla, bog'dorchilik, uzumchilik, kartoshka, savzavot va poliz hamda chorva yem-xashak ekinlari bilan band bo'lmoqda.

Tumanda sug'oriladagan maydon 21327 gektarni tashkil etib, bular Norin daryosidan boshlanuvchi Shimoliy Farg'ona kanali, Katta Namangan kanali, Qumqo'rg'on va Guliston kanallari va ular orqali suv oluvchi 955 km li ariq, 178,5 km li kollektor, zovur, 34 ta quduq, 11 ta nasos va 85 ta suv o'lchash va tekislash inshootlari orqali sug'oriladi. Tuman xojaliklariga yiliga 185-187 million kubometr suv yetkazib beriladi, shundan 28 million kub metrli aholi ehtiyoji uchun sarflanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiy qiyinchilikka qaramasdan mustaqillik yillarida tumanning Hizirobod hududida Respublika ahamiyatiga ega bo'lgan, qurilish-montaj ish hajmi 4 milliard so'mdan ortiqni tashkil qiluvchi yirik suv tindirish inshooti ishga tushirildi. Bu suv inshooti Namangan shahri, Uychi, Chortoq, To'raqo'rg'on, Chust va Pop tumanlarini toza ichimlik suvi bilan ta'minlaydi.

O'z navbatida, tuman ho'jaligining texnika bilan qurollanishi tubdan yaxshilandi. Agar 1945 yili tuman bo'yicha 71 ta XTZ, STZ xaydov traktori, 60 ta universal chopiq traktori va 5 ta STZ NATI traktorlari bo'lgan bo'lsa, hozir faqatgina Navoiy nomli fermer ho'jaligining o'zida 85 ta turli markadagi traktor, 31 ta avtomobil va boshqa texnika vositalari mavjud. Tuman bo'yicha esa 1080 ta

traktor, 401 ta traktor aravachalari, 48 ta ekskavator, 78 ta bul'dozer, 1200 ta avtomobil va boshqa agregatlar mavjud.

Tuman xalq ho'jaligi moddiy texnika bazasining mustahkamlanishi uning mahsulot ishlab chiqarish hajmini keskin ko'paytirishga olib keldi. Hozir qishloq ho'jaligi yetakchi tarmoq hisoblanib, u tuman ho'jaligi yalpi mahsulotining 63,0 foizini yetkazib bermoqda. Agrar ishlab chiqarishning asosiy tarmog'i paxtachilikdir. Yiliga 23748 tonna paxta yalpi hosili olinadi. Hosildorlik esa 31-32 sentnerni tashkil etadi. Bu tarmoqda tuman qishloq ho'jaligi yalpi mahsuloti hajmini 62,8 foizi hosil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin paxta yakka hokimligiga barxam berildi. Natijada paxta egallagan ekin maydonlari keskin qisqardi. Faqatgina 1991-1995 yillarning o'zida paxta ekin maydoni 1850 gektardan ortiqqa qisqardi. O'z navbatida g'alla, kartoshka, sabzavot va poliz, bog'dorchilik, uzum va chorva nyem-xashak ekinlari maydoni kengayib, mahsulotishlab chiqarishhajmini oshirildi.

Tuman dehqonchiligi Respublika mustaqilligini ta'minlovchi tarmoqlarni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Xususan, don, sabzavot va kartoshka yetishtirish hajmini ko'paytirilib, tuman aholisi ehtiyojini to'la ta'minlash bilan birga boshqa joylarga ham chiqarilmoqda. 2013 yilda g'alladan yuqori hosil olindi. O'rtacha hosildorlik 46,4 sentner bo'lib, yalpi hosil 19073 tonnani tashkil etdi. Bu esa tuman aholisini qariyb 70 foizini g'allaga bo'lgan ehtiyojini ta'minlaydi.

Tumanda chorvachilikni rivojlantirish, chorva mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish maqsadida juda katta ishlar qilinmoqda. Uning yem-xashak bazasini mustahkamlanmoqda. Chorvachilikda iqtisodiy islohotlar jadal olib borilmoqda. Mavjud 14 ta chorva fermalarining 3 tasi xissadorlikka o'tkazildi, 6 tasi xususiylashtirildi, 20 ta chorvachilikka ixtisoslashgan dehqon fermer ho'jaliklari tashkil etildi.

Tuman qishloq ho'jaligining muhim tarmog'I pillachilikdir. Keyingi yillarda pilla yalpi hosili biroz kamaydi. Bunga asosiy sabab tutzorlarning kamayib ketishi

va uni qayta ishlovchi sanoat korxonalarining yetishmasligidir. Hozir yiliga 308,16 tonna pilla yalpi hosili olinmoqda.

Uychi tumanida viloyatning boshqa hududlariga nisbatan aholi qurilish, transport, aloqa, savdo va umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat, maorif, jismoniy tarbiya va sport sohaslarini bir muncha yaxshi rivojlanganligi xarakterlidir.

Tuman tashkil etilgan davrda bironta ham **qurilish** tashkilotiga ega bo'lmagan. Hozirgi kunda 11 ta qurilish tashkilotlari mavjud bo'lib, ular tomonidan juda katta ko'lamda qurilish-pudrat ishlari amalgam oshirilmoqda. Quruvchilarning mehnatlari tufayli tuman qiyofasi tubdan o'zgardi. Birgina 2013 yilning o'zida 22,8 million so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarildi.

Xalq ho'jaligi yuklarini punktga yetkazishda Namangan Transport xissadorlik jamiyati, 3-avtokolonna, 8-avtokorxonalar tashkilotlarining ishchi xizmatchilari va haydovchilarning munosib xissalari bor. Ular tomonidan 2013 yilda 115,6 ming tonna halq ho'jaligi yuklari punktga o'z muddatida yetkazildi.

Tumanda 256 km uzunlikdagi turli yo'llar mavjud bo'lib, ulardan mamlakat ahamiyatidagi yo'llar 78 km, viloyat va mahalliy ahamiyatidagi yo'llar 178 kmni tashkil etadi. Tuman avtomobil yo'llari boshqarmasida 106 nafar kishi ishlaydi. Namangan avtotransport aksionerlik jamiyatida jami ishlovchilar soni 305 nafar, avtomobil soni esa 180 tadir.

Shuningdek, Toshkent-Andijon temir yo'l doirasining Hizirobod qishlog'i hududida Uychi temir yo'l bekati ishga tushirildi. Bu bilan tuman aholisining O'zbekistonning turli viloyatlari, qo'shni mustaqil davlatlar bilan o'zaro aloqalar va yuk tashish imkoniyati yaxshilandi. Hozirgi kunda mazkur bekat orqali Jiydakapa temir-beton zavodiga qadar 17,5 km masofada temir yo'l qurilgan.

Tuman hududida **telefon va aloqa xizmati** yaxshi yo'lga qo'yilgan. Agar 1947 yili 50 nuqtaga mo'ljallangan qo'l bilan ishlaydigan telefon stantsiyalari mavjud bo'lgan bo'lsa, hozir tumanning qishloq va mahallalarida 40888 nomerli aloqa vositalari ishlamoqda. 15 mingdan ortiq xonadon radiolashtirilgan.

Tumanda kommunal uylar soni 24 ta bo'lib, ularning maydoni 31 ming kv m ni tashkil etadi. Tuman xududida Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili dasturi

asosida 2010-2014-yillarda barcha qulayliklarga ega bo'lgan 257 tadan ortiq turar joylar barpo etilib, foydalanishga topshirildi. Bularning geografiyasi; G'ayrat-30 ta, Jiydakapa, QFY -50 ta, Mashad QFY-45 ta, Yorqorg'on -50 ta, Uychi QFY-77 ta.

Aholini gaz bilan ta'minlash darajasi 66,8 foiz, ichimlik suvi bilan esa 80,4 foizdir.

Tumanda aholiga *savdo* va *maishiy* xizmat ko'rsatishga katta e'tibor berilgan.

Hozir tumanda 480 ta savdo va maishiy xizmat ko'rsatishg shahobchalari bo'lib, ulardan 410 tasi xususiy do'konlardir.

Umumiy ovqatlanish joylari	28 ta
Maishiy xizmatda	27 ta
Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida ishlab chiqarish bo'limlari	8 ta
Tikuvchilik	4 ta
To'quvchilik	3 ta
Qandolatchilik	14 ta
Nonvoyxona	52 ta
Oshxona	18 ta
Qaxvaxona	5 ta
Muzqaymoq pavilioni	18 ta
Boshqalar	38 ta

Keyingi yillarda *halq ta'limini* rivojlanishiga katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa Ta'lim to'g'risidagi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bo'yicha sezilarli ishlar qilinmoqda.

Tuman hududida 8 ta kollej bo'lib, ularda qariyb 9248 ga yaqin talaba turli kasbni egallamoqda. Hozirgi kunda Uychi tumanida 48 ta umumiy ta'lim maktablari bo'lib, ularda 31284 nafar o'quvchi ta'lim olmoqda. Maktabgacha tarbiya muassasalari 41 ta bo'lib 6517 nafar bola tarbiyalanmoqda. Bolalar bog'chalariga tortilish 62,0 foizni tashkil etadi.

Tuman *sog'liqni saqlash* xizmatiga 1936 yili asos slogan. O'sha davrda 30 o'rinli kasalxona, 4 ta uchastka kasalxonasi, 2 ta ixtisoslashtirilgan kasalxonalar, 13 ta qishloq vrachlik punkti va 1 ta tish davolash shifoxonasi, 14 ta turli xildagi dorixonalar va boshqa tibbiyot maskanlari aholi salomatligini saqlash yo'lida xizmat qilmoqda. Shifoxonalardagi o'rinlar soni 1145 ta bo'lib, aholini ta'minlash darajasi 82,5 foizni tashkil etadi. 1193 nafar tibbiyot hodimlari bo'lib, ulardan 341 nafari oily ma'lumotlidir. Kasalxonalarda 26 xil shifokorlik yordami ko'rsatilmoqda.

Aholining ma'naviyatini takomillashuvida madaniyat maskanlarini o'rni beqiyos. Mavjud 45 ta kutubxona, 1 ta madaniyat saroyi, 16 ta qishloq klublari, 1 ta kinoteatr va 16 ta kino ko'rsatish shaxobchalari halq xizmatida.

Sog'lom avlodni shakllanishida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati benixoya katta. Hozir 5 ming tomoshabinga mo'ljallangan "Paxtakor" o'yingohi, 25 ta sport zal, 27 ta otish joyi, 35 ta basketbol, 100 ta voleybol, 25 ta qo'lto'pi, 3 ta tennis o'yingohi, 44 ta futbol maydonlari ishlab turibdi. Shuningdek, ko'ngilli jismoniy tarbiya va sport, mehnat o'rin bosarlari uyushmalari, jimoniya tarbiy fermerlaridan "Aloqachi" futbol, "Uychi" voleybol jamoasi, erkin kurash, bolalar va o'smirlar sport maktabi faoliyat ko'rsatmoqda.

Aholi ijtimoiy himoya qilishga ham katta e'tibor berilgan. Tumanda 17928 nafaqa oluvchi bo'lib, shundan 400 nafari urush qatnashchilari, 330 nafari nogironlar, 10990 nafar mehnat faxriylaridir.

Aholi punktlari ijtimoiy ishlab chiqarish markazlari bo'lib, ular tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanadi. Hududning unumdor tuprog'i, suv bilan ta'minlanganlik darajasi, iqlim sharoitining qulayligi va boshqa tabiiy omillar sug'orma dehqonchilikning rivojlanishiga olib keladi va tipik qishloq ho'jaligi aholi punktlari shakllanadi. Yaylovlarda chorvachilik rivojlangan bo'lib, bunday hududlarda ko'chib yuruvchi aholi punktlari qaror topadi. Yangi o'zlashtirilgan ho'jaliklarda mavsumiy aholi punktlari ko'proq rivojlanadi. Bu yerda aholi punktlarining shakllanishida tabiiy sharoitning ayrim elementlarini (yer, uning rel'yefi, suv va iqlim sharoiti) rolini ko'rsatishga harakat qilindi.

Aholi punktlari tabiiy sharoiti bilan birga iqtisodiy, aniqrog'i, tabiiy resurslar (mineral xom ashyo resurslari, o'rmon, suv, quyosh va h.k) va ularni o'zlashtirish jarayonida ham paydo bo'ladi. Bunday aholi punktlarini aholi joylashuvining "resursli" shakli deb ham ataladi. Turli qazilma boyliklar, o'rmon va shunga o'xshash resurslarni o'zlashtirish jarayonida "resursli aholi punktlari" paydo bo'ladi. Namangan viloyatida Chodak, Chorkesar (rangli rudalarni o'zlashtirish), Mingbuloq (neft qazish) va shunga o'xshash aholi punktlari resursli aholi punktlariga misol bo'la oladi.

Uychi tumanidagi barcha aholi punktlari qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishni rivojlantirish asosida paydo bo'lgan. Ularning ko'pchiligida sug'orma dehqonchilik zamirida shakllangan. Tuman hududida dehqonchilik, chorvachilik zaminida rivojlanayotgan aholi punktlari bilan birga suv inshooti (gidrotexnik) qurilishi asosida qaror topayotgan aholi punktlari ham bor. Bu tipdagi aholi punktiga Hizirobod QFYdagi suv tindirgich uzeli aholi punktini qurilishi misol bo'la oladi. Aholi punktlari qaror topishida yuqoridagi omillardan tashqari transport va uning tarmoqlarini (temir yo'l, avtomobil yo'li, suv, havo va quvur transporti) ahamiyati katta. Uychi tumani aholi punktlarining rivojlanishida bu omillarning roli beqiyos yuqoridir. Uychi. Yorkatay, Mashad, Jiydakapa kabi aholi punktlarining rivojlanishida ma'lum darajada ularning jadal taraqqiy etishiga ta'sir qiladi.

**Uychi tumani aholi punktlarining bajargan vazifalariga ko'ra
tasniflash**

№	Aholi punktlarining tiplari	Aholi punktlari va ularning aholisi soni (ming kishi hisobida)	Jami nisbatan foiz hisobida	Aholi punktlarining nomi
1	Qayta ishlash sanoati va boshqaruv tipidagi aholi punktlari	$\frac{1}{15,6}$	$\frac{10,0}{10,1}$	Uychi shaharchasi
2	Aralash (qishloq ho'jaligi va sanoat ishlab chiqarishning tarmoqlari rivojlangan) aholi punktlari	$\frac{5}{88,8}$	$\frac{50,0}{57,3}$	Yorkatay, Mashad, Jiydakapa, Hizirobod QFYlari va O'nhayat shaharchasi
3	Tipik qishloq aholi punktlari	$\frac{4}{50,6}$	$\frac{40}{32,6}$	Uychi, Yorqo'rg'on, G'ayrat, Birlashgan QFY lar.
	Jani:	$\frac{10}{155,5}$	$\frac{100}{100}$	

Uychi tumani statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Tuman aholi punktlarining 90,0 foizini aralash va tipik qishloq aholi punktlari tashkil etib, ularda jami aholining deyarli shuncha qismini yashaydi. Qayta ishlash sanoati va boshqaruv vazifasini bajarayotgan aholi tipidagi faqatgina Uychi shaharchasi bo'lib, unga jami aholining 10,0 foizidan ortig'i to'g'ri keladi.

Aralash tipdagi aholi punktlaridan, ya'ni aholisi qishloq ho'jaligi hamda ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlari bilan shug'ullanuvchi Yorkatay QFY da paxtachilik, pillachilik va g'allachilikka ixtisoslashgan fermer ho'jaliklari mavjud.

2.3 Tuman aholi punktlari iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi hamda ularni “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturi asosida takomillashtirish

Tuman aholi punktlari viloyat ko'lamida zich joylashganligi bilan xarakterlanadi. Auniqsa, respublika mustaqillikka erishgandan keyin aholiga turar joy maydonlarini berilishi bilan tuman aholi punktlari bir-biri bilan tutashib, qishloq aholi punktlarining zanjirini-aglomeratsiyasini hosil qildi. Bu esa Respublika Vazirlar Mahkamasining 1996 yil may oyidagi “Qishloq joylarida sotsial infrastrukturani yanada rivojlantirish” haqidagi farmonini jadal amalga oshirish imkoniyatini yaratdi.

Hozir Uychi tumanida 13 ta shahrcha, 8 ta qishloq fuqarolar kengashi yig'inlari bo'lib, ular tarkibiga 63 ta kichik qishloq va mahallalar mavjud.

Uychi tumanida sanoat ishlab chiqarishning sust rivojlanganligi va aholining asosiy qismini qishloq yerlariga joylashganligi tufayli shahr aholisining salmog'i yuqori emas. To'g'ri, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 13 martdagi qarori bilan Uychi tumanidagi 11 ta qishloq mahalla fuqarolar yig'inlariga shahrcha maqomini berilishi bilan shahar aholisining salmog'i 18,0 foizdan qariyb 38,0 foizga o'sdi. Ammo, bu ko'rsatkich viloyat ko'rsatkichidan ancha past, Viloyatda, shahar aholisining salmog'i 64,6 foizni tashkil etadi.

Garchand, tuman aholisining tarkibida shahrliklarni salmog'i yuqori emasligi tufayli urbanizatsiya jarayoni yaxshi rivojlanmagan. Ammo aholining mayatnik migratsiyasi, ya'ni kishilarning yashash joyidan Namangan shahariga kundalik qatnovi yaxshi rivojlangan. Quyida tuman shaharga va qishloqlariga qisqacha ta'rif beriladi.

Uychi shahrchasi. Uychi shaharchasi – tuman markazi hisoblanadi. Shaharcha shimoldan Chortoq tumanining Koroskon qishlog'i, Shimoliy Farg'ona

kanali, g'arbiy tomondan Yorqo'rg'on qishlog'i, janubi-sharqidan esa Uychi qishloq fuqarolar yig'ini bilan chegaradosh. Aholisi 18,1 ming kishi.

Uychi shahrchasida 5 ta mahalla bor. Bular – Bog' mahalla, Xurriyat, Navoiy, Shifokor, Beruniy mahallalari. Bularning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

9-Jadval

Uychi tumanining ijtimoiy rivojlanishi

(2014 yil 1 yanvar)

Yozuvlar mazmuni	mahallalar			
	Jami	Bog'	Hurriyat	Navoiy
	1	2	3	4
Qishloqlar soni	8	-	-	-
Ho'jaliklar soni	38685	504	510	874
Oilalar soni	52709	675	510	1200
Jami aholi	205501	2478	2935	5130
0-6 yoshlar	10212	123	146	255
7-15 yoshlar	28733	346	410	717
16-60 yoshli erkaklar	73231	883	1046	1828
15-55 yoshli ayollar	79302	956	1132	1979
60 yoshdan katta erkaklar	4694	57	67	117
55 yoshdan katta ayollar	9359	113	133	233
Nafaqaxo'rlar	1218	15	17	30
Nogironlar	2445	29	35	61
Ko'p bolali oilalar (4 va undan ortiq)	5615	18	14	23

Mehnatga layoqatli	118000	1422	1685	2945	
Ishlayotganlar	16310	197	233	407	
Fermer ho'jalik a'zolari	-	-	-	-	
Ishchi va xizmatchilar	73500	886	1048	1834	
Xususiy mehnat qilayotganlar	40100	483	572	100	
Ziyolilar	33264	198	233	407	
O'qiyotganlar	16312	329	382	668	
Ishlayotganlar	26761	159	188	329	
Tumandan tashqarida ishlayotganlar	13212	98%	100%	100%	
O'zbeklar	92 %				
Boshqa millatlar	8%	2%			
Maktablar soni	47	2	3	1	
Unda	Ishlayotgan	3112	132	199	66
	O'qiyotgan	28733	1223	1834	611
Bolalar bog'chasi	40	4	2	1	
Unda	Ishlayotgan	786	79	39	19
	Bolalar soni	3632	309	154	73
Savdo do'koni	347	42	6	8	
Sartaroshxona	154	14	5	11	
Kosibchilik	58	4	3	1	
Kutubxona	55	4	1	1	
Tibbiy xizmat ko'rsatish	27	2	1	1	
Ishlab chiqarish korxonasi	146	29	12	6	
Fermer ho'jaliklari va xususiy korxonalar	498	4	8	15	
Dehqon fermer	182	3	7	12	

*Jadval tuman hokimligi statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shaharcha hududida 1,6,26,36,40-umumiy o'rta ta'lim maktablari, 2 ta kasbxunar kolleji, tuman halq ta'limiga qarashli 12 ta bolalar bog'chasi, 450 o'rinli markaziy madaniyat saroyi, 400 o'rinli "Ulug'bek" nomli kinoteatr va yozgi kinoteatri, 51 ming kitob fondiga ega bo'lgan markaziy kutubxona joylashgan. Kitobxonaning 4 mingga yaqin a'zosi bo'lib, hozirgi kunda ham faoliyat ko'rsatmoqda. Shuning bilan birga, "Paxtakor" o'yingohi, "Kap Teks" yigiruv-to'quv fabrikasi, poyafzal, noto'qima materiallar fabrikasi, Uychi savdo xissadorlik jamiyati, xususiy do'konlar uyushmasi, 3-MKK, Namangan MKK, "Istiqlol" qurilish pudrat ho'jaligi, 138-qurilish ta'mirlash tashkilotlari, aholiga yakka yakka tartibdagi uylarini qurish tashkiloti, suv ho'jaligi bo'limi, tumangaz, non pishirish kombinati, umumiy ovqatlanish korxonasi, qator kichik korxonalar, avtobus bosh bekati, elektorlashtirish bo'limi, "Super bred" oliynon korxonasi, sariyog', pishloq, kalbosa sexlari, aloqa bo'limi, sanepidemstansiya, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash inshooti, vino ishlab chiqarish shaxobchasi, veteranariya shifoxonasi, dehqon bozori va hayvon bozori mavjud. Dehqon bozorida hamma sharoitlar yetarli bo'lib, u milliy memorchilik usulida qurilgan.

Respublikamiz mustaqillikka erishishi tufayli tuman qiyofasi tubdan yaxshilanmoqda. Tuman markazidan o'tgan avtomagistral yo'li qayta ta'mirlandi va tashqi ko'rinishlari obodonlashtirildi, "Tadbirkor" bank qurilib, ishga tushirildi.

Uychi QFY. Uychi qishloq fuqarolar yig'ini 1934 yilda tashkil topgan. Qishloq shamol va g'arb tomonidan Uychi shaharchasi, Janubdan Jiydakapa qishloq fuqarolar yig'ini, sharq tomonidan G'ayrat qishloq fuqarolar yig'ini bilan chegaradagi qishloqning umumiy yer maydoni 33,0 kv km. Aholisi 18,6 ming kishi. Qishloq Qo'rg'oncha, Pastguzar, Soku, Gulzor, Mevazor va Umid Gulbog' mahallalaridan iborat. Soku mahalla fuqarolar yig'ini 2009 yil shaharcha maqomini oldi.

Qishloq hududida "Zarbdor", "Uychi" fermer ho'jaliklari, parrandachilik xissadorlik ho'jaligi, Tayyorlov idorasi. Namangan ixtisoslashtirilgan mexanizatsiyali ko'chma kollonnasi, g'isht zavodi, tuman tijorat savdo idorasi, "Zarbdor" fermer ho'jaligi, savdo idorasi, 15,23,39 – umumiy o'rta ta'lim

maktablari, halq ta'limi bo'limiga qarashli 16-18 bolalar bog'chasi, choyxona, maishiy xizmat ko'rsatish korxonasi va filiallari joylashgan.

Jiydakapa QFY. Tuman janubi-g'arbi tomonidan Norin daryosining o'ng sohilida joylashgan. Qishloq Norin daryosining chap sohili orqali qo'shni Uchqo'rg'on, Norin tumanlari, shimoli-sharq tomonidan tumanning Yorqo'rg'on, Uychi, G'ayrat, Birlashgan, Qizilrovot qishloqlari bilan, g'arbda esa Namangan tumanining Qumqo'rg'on va O'zbekiston qishloqlari bilan chegaradosh. Maydoni 50,5 kv km. Aholisi 27,7 ming kishi.

Qishloq tarkibida Guliston, Axxi, Shaftoli, Qumtepa, Do'stlik, Dehqon, Daxiyaota, Bo'ston, YUksalish va Balandariq mahallalari mavjud. Axxi mahallasi 2009 yil shaharcha maqomini oldi.

Jiydakapa tumanidagi eng ko'xna qishloqlardan biri hisoblanadi. Turkiy manbalarda XIII asrlardayoq Jiydakapa qishlog'i mavjudligi ta'kidlangan. Qishloqning atamasi ham tabiatdan kelib chiqqan va o'ziga xos tarixi bor. Avlodan-avlodga ko'chib borayotgan ma'lumotlarga ko'ra, qishloq hududida avvallari yovvoyi jiyda daraxtlari ko'p o'sgan. Dastlab shu yerga kelib o'rnatilgan kishilar Jiydakapa qurib yashagan. Namangan, Andijon, Marg'ilon, O'sh tomonlarga boradigan yo'l shu yerdan o'tganligi tufayli yo'lovchilar Jiyda-kapada to'xtab dam olishgan. Natijada, qishloq "Jiydakapa" deb atala boshlangan.

Qishloq hududida bir necha aholi punktlari mavjud bo'lib, nomlarini kelib chiqishi ham qishloq tarixi bilan uzviy bog'langan. Ularning nomlanishi mahalliy aholining kelib chiqishi, udumi, kasb-kori bilan bog'liqdir. Bu qishloqlar – Daxiyaota, Kichik toshloq, Katta toshloq, Kallak-buva, Balandariq, Qurama, Qumri, Qo'rg'oncha, Qumtepa, Qaqirchek, Shaftoli, Axxi, Qiziloy, Ko'tarma, Orol qishloqlari tarixiga ega.

Balandariq aholi punkti hududi qishloqqa nisbatan balandroq yerga joylashgan bo'lib, qishloqdan o'tgan ariq orqali butun aholi suv ichgan.

Qumtepa aholi punktidagi foydalaniladigan yerlarning asosiy qismini qishloq, toshloq yerlar tashkil etgan.

Qiziloy inqilobdan oldin Qurama deb yuritilgan, keyinchalik yangi tuzilgan kolxoz nomi bilan “Qiziloy” deb atalgan.

Jiydakapa QFYi hududida 3 ta fermerlar uyushmasi, “Bobur” nomli, “Ulug’bek” nomli, “Guliston” nomli, 2 ta sanoat korxonasi temir-beton buyumlari ishlab chiqarish va Uychi tajriba-sinov zavodlari, Namanganstroy, ho’jalik hisobidagi 8-avtotransport saroyining Aysi filiali, Guliston paxta qabul qilish shaxobchalari, 6 ta umumiy o’rta, 2 ta to’liqsiz o’rta maktablari, madaniyat bo’limiga qarashli 2 ta madaniyat uyi, 1 ta qishloq klubi, 7 ta kutubxona, ambulatoriya, 100 ta o’rinli shifoxona, 9 ta tibbiy xizmat shoxobchalari, 30 ta savdo shoxobchalari, 2 ta aloqa bo’limi, maishiy xizmat uyi, 28 ta oshxona, 27 ta nonvoyxona, suv ho’jaliklarining uylari va boshqa qator tashkilot hamda muassasalar bor.

Yorqo’rg’on QFY. Qishloq sharq tomondan Uychi qishlog’I va Uychi shaharchasi, janubda Jiydakapa QFY ni, G’arbdan Yorkatoy QFY I, shimoldan esa shimoliy Farg’ona kanali bilan chegaralangan. Maydoni 28,0 kv km aholisi 26,9 ming kishi.

Qishloq hududida Ho’jaobod, Yangichek, Muborak, Toshloq, Bog’ ko’cha, Oqtosh va Tepasaroy mahallalari bo’lib, Toshloq mahallasiga shaharcha maqomini berilgan. Bu hududda “Navoiy” nomli fermer ho’jaligi, 6 ta o’rta maktab, 9 ta bollar bog’chasi, 40 ta savdo shaxobchasi, 2 ta vrachlik shoxobchasi, 4 ta feldsherlik-akusherlik punkti, 1 ta kasalxona mavjud. Qishloq hududida 12-PMK, naslchilik korxonasi, qishloq ho’jaligiga kimyoviy xizmat ko’rsatish korxonasi, yo’l qurilish va ta’mirlash birlashmasi, Ho’jaliklararo kommunal ta’mirlash birlashmasi, “Avtotransport” xissadorlik jamiyati joylashgan. Bulardan tashqari 2 ta xammom, 2 ta klub, ko’plab maishiy xizmat ko’rsatish shaxobchalari, “Anor” xususiy firmalari aholiga xizmat ko’rsatmoqda.

Yorkatay QFY. Yorkatay qishloq fuqarolar yig’ini tumanning g’arbida, sharq tomonida Yorqo’rg’on qishloq fuqarolar yig’ini, g’arb tomonidan O’nhayat shaharchasi, shimol tomondan Chortoq tumanining Koraskon qishlog’i va janubda

Namangan tumanning Qurama qishlog'I bilan chegaralangan. Maydoni 21,0 kv.km. Aholisi 24,2 ming kishi.

Qishloq o'z tarkibiga – Yorkatay, Mirzaravot, Islomobod, Churtuk, Gumbaz, Fayzobod mahallalarini birlashtiradi. Fayzobod va Churtuk mahallalari 2009 yil shaharcha maqomini oldi.

Yorkatay QFYi hududida sobiq Namangan transport ishlab chiqarish xissadorlik jamiyati binosi Churtuk g'isht ishlab chiqarish zavodi, Yorkatay paxta tayyorlash punkti, Yorkatay “Mega Tekstil” qo'shma korxonasi Churtuk sochiq ishlab chiqarish sexi, 8 ta non ishlab chiqarish sexi, 9 ta qassobxona, 12 ta savdo do'koni, 10 ta sartaroshlik ustaxonasi, 1 ta kinoteatr, 4 ta kutubxona, 1 ta xammom, 2 ta aloqa bo'limi, 5 ta oyoq kiyimni ta'mirlash ustaxonasi, 2 ta varchlik ambulatoriyasi, 50 ta o'rinli kasalxona, 4 ta feldsherlik punkti, Yorkatay tub dispanseri, 1 ta tez yordam stansiya, 11,16,21,27-umumta'lim maktablari, halq ta'limiga qarashli 5 ta bolalar bog'chasi va “Beruniy” nomli fermer ho'jaligi faoliyat ko'rsatadi.

O'nhayat shaharchasi. O'nhayatshaharchasi tumanning g'arbida joylashgan, shuning bilan birga Namangan tumaniga ham chegaradosh. O'nhayat shaharchasi Yorkatay, Mashad qishloqlari va Namangan tumanining Qurama, Qo'rg'ontepa qishloqlari bilan ham chegaradosh. Maydoni 2,0 kv km. Aholisi 16,2 ming kishi.

Rivoyatda O'nhayat – bu yerda 10 ta doimiy hayot kishilar bor yoki ilgari bu yerda 10 kishi hayot qilib yashagan deyishadi.

Shaharchada A.Mo'minov nomli, Ho'jamberdiyev nomli, O'nhayat, Obod mahallalari mavjud. Ho'jamberdiyev nomli mahalladagi 578 ta xonadonda 1027 ta oila yashaydi. Mahallada “Ovchi buloq” va “Ovchi ota” tepalari joylashgan. A.Mo'minov mahallada esa 565 ta xonadon bo'lib, u yerda 1031 oila yashaydi. Mahalla hududida choyxona, vrachlik punkti, klub, kutubxona, dorixona, savdo do'koni, veterinariya, qassobchilik va kosibchilik shaxobchalari mavjud. Mahallada 1943-1947 yillarda O'zbekiston Oliy kengashi Prezidiumining raisi bo'lib ishlagan Abduvali Mo'minov yashagan va mahallaga shu kishining nomi berilgan.

O'nhayat shahrchasida O'zbekiston mahalliy sanoati konseriniga qarashli Uychi "Ipakchi" xissadorlik ishlab chiqarish jamiyati, 10 ta turli xil halq iste'mol mollari ishlab chiqaradigan tijorat va kichik korxonalar, 3,29,35-umumta'lim maktablari, 2 ta vrachlik ambulatoriyasi, 2 ta feldsherlik-akusherlik shaxobchasi, 2 ta klub, 2 ta kutubxona, 7 ta savdo do'koni, 3 ta choyxona, 10 ta sartoroshxona va 6 ta kosbchilik ustaxonalari bor.

Mashad QFY. Qishloq tumanning g'arbiy qismida joylashgan, umumiy yer maydoni 22,0 kv km., aholisi 27,2 ming kishi. Mashad qishloq fuqarolar yig'ini Namangan tumaniga tegishli Sho'ro, Uychi tumanining O'nhayat shaharchasi bilan chegaradosh. Qishloq Yakkatut, Oxunboboyev, Guzar, Sanoat, Oltitong, Mashad, Quvurboshi va Objuvoz mahallalariga bo'linadi. Ularning tarkibida 35 ta quyi mahallalar mavjud.

Mashad QFYi tarixi o'tmishga borib taqaladi. Uning nomlarini XIV asrga to'g'ri kelmoqda. Mashad so'zini asl ma'nosi din yoki masxab yo'li shahid bo'lganlarning mozorini anglatadi.

Qishloqda A.Mo'minov nomli fermerlar uyushmasi, shu ho'jalikka qarashli atlas to'qish sexi, konserva, tandirchilik, gilamchilik sexlari, shuningdek, mayda duradgorchilik korxonalari, 6 ta bolalar bog'chasi, 5 ta umumta'lim maktablari, 1 ta qishloq kasalxonasi, 2 ta vrachlik ambulatoriyasi, 3 ta feldsherlik-akusherlik shahobchalari ishlab turibdi. Tuman markaziy kutubxonasiga qarashli 2 ta kutubxona, 1 ta kinoteatr, 1 ta klub, 1 ta xammom aholiga xizmat ko'rsatmoqda. 1998 yil mart oyidan boshlab O'zbekiston-Xitoy qo'shma "Al-Jahon" choy qadoqlash fabrikasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Birlashgan QFY. Qishloq kengashi 1989 yilda tashkil etilgan. Qishloq hududi 68,7 kv.km joyni egallaydi. Aholisi 8,8 ming kishi. U shimoli-g'arb tomondan Chortoq tumani, g'arbda G'ayrat, sharqda Qizilravot, janubi-g'arbda Uychi QFY, janubda Norin daryosi bilan chegaradosh. Qishloq kengashi markazi Birlashgan qishlog'i. Qishloq kengashi hududida "Sohibkor" va "G'ayrat" fermerlar uyushmalari joylashgan. Namangan o'rmon ho'jaligining "Zrabob" uchastkasi, 7,32-umumta'lim maktablari, qishloq shifoxonasi, hayvonlarni

davolash shaxobchasi, 300 o'rinli telefon stansiyasi va boshqalar bor. Qishloq hududi katta Namangan va shimoliy Farg'ona kanallaridan sug'oriladi. "Sohibkor" fermerlar uyushmasi bog'dorchilik, uzumchilik va sabzavotchilik, "G'ayrat" fermer uyushmasi paxtachilik va g'allachilikka ixtisoslashgan.

G'ayrat QFY. Qishloq 1975 yilda tashkil topgan. Qishloq shimoliy tomoni shimoliy Farg'ona kanali, janubda "Zarbdor" fermerlar uyushmasi, sharqda Qizilravot qishloq fuqarolar yig'ini bilan chegaradosh. 1989 yil 28 noyabrda "G'ayrat" qishloq fuqarolar yig'ini ikkiga "Do'stlik" va "G'ayrat" qishloq fuqarolar yig'iniga bo'lindi. Maydoni 23,0 kv km. Aholisi 14,5 ming kishi. G'ayrat qishloq fuqarolar yig'ini, hududida 4 ta mahalla bor, ular Bo'yag'on, G'ayrat, Olmurut va Ittifoqdir. Bo'yag'on va G'ayrat mahallalari shaharcha maqomiga ega.

Qishloq hududida "G'ayrat" fermerlar uyushmasi, 138 ho'jaliklararo mexanizatsiyalashgan ko'chma jamiyati, ho'jaliklararo burdoqchilik korxonasi, 3 ta avtokalonna filiali, Yosh tabiatshunoslar maskani, 22 - Ibn Sino nomli, 28-Furqat nomli, 34-Nodira nomli umumta'lim maktablari va halq ta'limi bo'limiga qarashli 8- G'uncha bolalar bog'chasi, "Nishon" ko'p tarmoqli kichik korxonasi joylashgan. Bu yerda "Yassi tepa" tepaligi bo'lib, uni 1930-1933 yillarda Qo'qon va Namangandan kelgan aholi tomonidan o'zlashtirilib, turli qishloq ho'jalik ekinlari ekilib tepalik yassilanib borib, "Yassi tepa" nomini olgan.

Qishloqda 18 ta savdo shaxobchalari aholiga xizmat qiladi. Bulardan tashqari sartaroshxona, qassobxona, tikuvchilik, kosibchilik, atlas va gilam to'qish sexlari, oshxona va boshqalar mavjud.

Qizilravot QFY. Qishloq Namangan viloyatining shimoli-sharqiy chekkasiga joylashgan. Qizilravot qishlog'I shimoli-sharqda Qirg'iziston respublikasi, shimoli g'arbda Chortoq tumani, janubda Norin daryosi va g'arbda Birlashgan qishloq fuqarolar yig'ini bilan chegaradosh. Umumiy yer maydoni 700 kv kmni tashkil etadi. Aholisi 22,1 ming kishi.

Qizilravot qishlog'i 1926 yilda tashkil etilgan. Qishloq fuqarolar yig'iniga Ezgulik, Yangi hayot, Hizirobod, Yangiyer, Ho'jaobod, Do'stlik, Ziyokor, I.Ro'ziboyev va Qahramon birlashgan.

Qishloq hududida joylashgan Shaldrama 1925 yilda hozirgi Shimoliy Farg'ona kanali qurilishi tugallanib, oz miqdorda bo'lsada suv chiqqan, kanal yangi qazilganligi uchun "Yangi ariq" nomi bilan atalgan. 1930 yilga kelib Yangi ariqda Esanboy quvuriqurilib hozirgacha ekinlarni suv bilan ta'minlab kelmoqda.

Elatan 1945-1950 yillarda Yangi ariqdan suv olish uchun Omonboy ismli murob suv quviri tashkil qilib, bu yerlarni o'zlashtirishda katta xissa qo'shgan kishi. Elatanning o'sha davrdagi hududi Qaxramon mahallasining Yertagi, Oq tepa, Nog'oraxona bo'ylab Namangan shahriga boriladigan katta yo'lning shimoliy qismiga joylashgan.

Qashqar mahalla – Qashqar (Xitoy) – Toshkent ipak yo'li Hizirobod, Rovot orqali o'tib sayyoh va savdogarlar tuya, ot hamda eshakda tuz va boshqa savdo buyumlarini shu yer orqali olib o'tishgan hamda ular tunab ham qolib ketishgan. Xitoylik qashqarlar (asosan uyg'urlar) mahalliy halq bilan chatishib yashaganlar va shuning uchun ham Qashqar mahalla nomini olgan.

Hizirobod – Rovot savdogarlar maskani bo'lib, "Obod saylgoh" ma'nosini bildiradi. Do'stlik – Hizirobod qishlog'idagi Qirg'iz mahalla bo'lib, u 1100 yildan ortiq tarixga ega. Bu yerda qadimdan qirg'iz, o'zbek va boshqa millatlar do'st-birodar bo'lib, kelin olib, qiz chiqarib, qudachilik qiladilar. 1991 yilgacha qirg'iz mahalla aholi punkti deb yuritilgan. Shuning uchun bunday mahaqllalarga nom berishda o'tmishdagi do'stlik, birodarlik tarixini hisobga olib, 1991 yildagi qishloq fuqarolar yig'inining qaroriga binoan Do'stlik mahallasi nomi berildi.

Hizirobod qishloq hududiga Oxunboboyev nomli fermerlar uyushmasi, Hizirobod urug'chilik – tajriba fermer shirkatlar uyushmasi, Sh.Rashidov nomli fermerlar uyushmasi, kasalxona, 5,25,8,9,43,45 – umumta'lim maktablar, Amerikaliklar bilan hamkorlikda qurilgan paxta tozalash zavodi, suv tozalash inшоati, Uychi temir yo'l bekati joylashgan.

Yuqorida tanishib o'tilgan aholi mpunktleri tuman hududidagi aholi joylashuvining asosiy yadrosini, mashhur iqtisodchi-geograf N.Baranskiyning so'zi bilan aytganda "hududning karkas (sinch)" larini tashkil etadi. Bu aholi punktlari o'zaro aloqada rivojlanib, Uychi tuman aholi punktlarining yagona

tizimini tashkil qiladilar. Bu tizimda ham bir aholi punktining o'ziga xos ichki va tashqi iqtisodiy geografik, demografik, mikrogeografik (loyihali, ya'ni aholi punkti hududida ijtimoiy hayotni joylashishi) va ekologik muammolari borki, ularni asta-sekin bartaraf qilish, hozirgi kunning dolzarb masallaridir. Xususan, tumanning ma'muriy boshqaruv markazi – Uychi shahrchasining iqtisodiy geografik o'rnini qulay. Viloyat ko'lamida bu imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanilmayotir. Qator qayta ishlov sanoati korxonalarini qurish Uychi shaharchasining iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatini ko'targan bo'lar edi. Qimmat baho sug'orma dehqonchilikyerlarini o'rtasida joylashganini e'tiborga olib, u yerda ko'p qavatli turar joylarini qurish maqsadga muvofiqdir. BUndan tashqari shaharcha markazida transport harakatini yengillashtirish maqsadida doirali avtomobil yo'lini tashkil qilish kerak.

Yorqo'rg'on va Yorkatay QFY hududlari tarkibidagi quyi qi8shloqlarni rivojlantirishda Chortoqsoy vodiysi trassalarini e'tiborga olish kerak. Chortoqsoy vodiysidagi quyi trassalarning aholiga turar joy qilib berilgan. Soyda yilning suv sarfi ko'paygan oylarida yer osti suv satxi ko'tarilmoqda va xonadonlarni suv bosishi xavfi tug'ilmoqda.

Jiydakapa, G'ayrat, Do'stlik, Hizirobod va Mashad QFY lari hududlarida tarqoq aholi punktlarikeng rivojlangan bo'lib, ularning sotsial va iqtisodiy infrastrukturasi yaxshi taraqqiy etmagan. Bu esa aholini doimiy yashab qolishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil may oylarida “Qishloq joylarinisotsial infrastrukturasi yanada rivojlantirish” farmonida asosan bu aholi punktlarining ijtimoiy va iqtisodiy qiyofasini hamda aholi madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchalarini tubdan yaxshilamoq lozim.

Bundan tashqari O'nhayat, Mashad, G'ayrat, Yorqo'rg'on. Yorkatay va ayniqsa Jiydakapa QFY lari hududidagi ayrim mahallalarda yer osti suvi ko'tarilishi natijasida xonadon va ekin yerlarining zaxlanishi kuchayib yaroqsiz holga kelmoqda. Bularning oldini olish uchun chuqur va keng zovur ariqlarni barpo etish darkor. Ayniqsa, aholini gaz, ichimlik suvi hamda elektr energiyasi

bilan muntazam ta'minlash aholi punktlarining qiyofasini yaxshilaydi va kishilarning turmush-madaniyatini ko'taradi.

XULOSA

Mustaqillik yillarida tuman uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yillari bo'ldi. Respublika prezidenti I.A.Karimovning iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish, aholini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan bir qancha Farmonlari asosida keyingi 23 yilda tumanda ko'lamini jihatidan juda katta ishlar amalga oshirildi. Xususiylashtirish ishlari jadal olib borilmoqda. Shu jumladan, 250 ta tashkilot va muassasalar mulkchilikning nodavlat shakliga aylantirildi, 19 ta xissadorlik jamiyatlari tuzildi. Yerlar dehqonlarga, ya'ni haqiqiy egalari (fermerlar)ga berilmoqdi. Hozirda ularning soni 856 tadan oshib ketdi.

Shuningdek, tuman aholi punktlari ko'rkiga-ko'rk qo'shayotgan 30 dan ortiq guzarlar tashkil etildi. Tuman markazi – Uychi zamonaviy dehqon bozori ishga tushirildi. 3000 o'quvchiga mo'ljallangan maktab va kollejlari, 8 ta shifoxona, asfalt zavodi qurib ishga tushirildi. Aholi uchun eng zarur bo'lgan Uchqo'rg'on-Namangan suv inshooti, 25 ming tonna paxtani qayta ishlash quvvatiga ega bo'lgan zavod ishga tushirildi. 6,5 ming tonna yonilg'i saqlash ombori qurildi.

Shularga qaramasdan viloyat ko'lamida aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Uychi tumani Uchqo'rg'on, Kosonsoy, Pop va Chust tumanlaridan orqada qolmoqda. Mavjud mehnat resurslarining 10,0-12,0 foizi ijtimoiy ishlab chiqarishda band emas. Aholini gaz bilan ta'minlash atiga 66,0 foizni, bolalarni bog'chalarga tortilishi esa 72,0 foizni tashkil etmoqda.

Tuman aholi punktlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini o'rganish quyidagi xulosalarni qilishga olib keldi:

1. Tumandagi mavjud aholi punktlari (8 ta qishloq fuqarolar yig'ini, 63 ta mahalla va 13 ta shaharcha aholi joylashuvining asosiy yadrosini, mashhur iqtisodchi geograf N.Baranskiyning so'zi bilan aytganda "hududning karkas (sinch)" larini tashkil etadi. Bu aholi punktlari o'zaro aloqada rivojlanib, Uychi tuman aholi punktlarining yagona tizimini hosil qiladilar. Bu tizimda har bir aholi punktining o'ziga xos ichki va tashqi iqtisodiy-geografik, demografik, mikrogeografik (loyhali, ya'ni aholi punkti hududida ijtimoiy hayotni joylashishi)

va ekologik muammolari borki, ularni asta-sekin bartaraf qilish, hozirgi kunning dolzarb masalalaridir.

2. Tumanning ma'muriy boshqaruv markazi – Uychi shaharchasining iqtisodiy geografik o'rnini qulay. Viloyat ko'lamida bu imkoniyatdan yetarli darajada foydalanilmayotir.

3. Qator qayta ishlov sanoati korxonalarini qurish Uychi shaharchasining iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatini ko'targan bo'lar edi. Qimmat baho sug'orma dehqonchilik va aholi zich yerlarni o'rtasida joylashgani va ulardan unumli foydalanish 2009 yil "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturini amalga oshirish maqsadida tuman hududida ko'p qavatli turar joylarni qurish maqsadga muvofiqdir.

4. Bundan tashqari shaharcha markazida transport harakatini yengillashtirish maqsadida doiralar avtomobil yo'lini tashkil qilish lozim. Eng muhimi, tuman markazi – Uychi shaharchani yagona arxitektura loyixasi va "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturi asosida qayta qurish lozim.

5. Yorqo'rg'on va Yorkatay QFY hududlari tarkibidagi quyi qishloqlarni rivojlantirishda Chortoqsoy vodiysi trassalarini e'tiborga olish kerak. Chortoqsoy vodiysidagi quyi trassalardagi yerlarni aholiga turar joy qilib berib yuborilgan. Soyda yilning suv sarfi ko'paygan oylarda yer osti suv satxi ko'tarilmoqda va xonadonlarni suv bosishi xavfi tug'ilmoqda.

Jiydakapa, G'ayrat, Do'stlik, Hizirobod va Mashad QFY lari hududlarida tarqoq aholi punktlari keng rivojlangan bo'lib, ularning ijtimoiy va iqtisodiy infrastrukturasi yaxshi taraqqiy etmagan. Bu esa aholini doimiy yashab qolishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil may oyida "Qishloq joylarini sotsial infrastrukturasi yanada rivojlantirish" farmoni va 2009 yil "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturi asosida bu aholi punktlarining ijtimoiy va iqtisodiy qiyofasini hamda aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchalarini tubdan rivojlantirmoq lozim.

6. Bundan tashqari O'nhayat, Mashad, G'ayrat, Yorqo'rg'on, Yorkatay va ayniqsa Jiydakapa qishloqlari hududidagi ayrim mahallalarda yer osti suvi ko'tarilishi natijasida xonadon va ekin yerlarining zaxlanishi kuchayib, yerlar yaroqsiz holga kelmoqda. Bularning oldini olish uchun chuqur va keng zakan-zovur va ariqlarni qazish kerak. Ayniqsa, aholini gaz, ichimlik suvi hamda elektr energiyasi bilan muntazam ta'minlash aholi punktlarining qiyofasini yaxshilaydi va kishilarning turmush-madaniyatini ko'taradi.

7. Tumanning Gayrat, Jiydakapa, Mashad 2010-2014 yillarda Yorqo'rg'on va Uychi qishloqlarida "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturi asosida barcha qulayliklarga ega bo'lgan 257 ta turar joylar qurilib, foydalanishga topshirildi. Bu turar joylarni aholi zich va qimmat baho sug'orma dehqonchilik aholi punktlarida ko'p qavatli qilib qurish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

I. Normativ huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi 1046-sonli qarori "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturini qabul qilish haqida. "Xalq so'zi" gazetasi, 2009 yil, 26 yanvar soni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 13 martdagi "O'zbekiston Respublikasi hududidagi qishloqlarga shaharcha maqomini berish" haqidagi 68-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-textika bazasini mustahkamlash va yuqori malakalarni mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori. "Xalq so'zi" gazetasi 2011 yil, 21 may soni.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

4. Karimov I.A. Ijobiy ishlarimizni oxiriga yetkazaylik. T.: "O'zbekiston", 1992. 112 b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishlik o'ziga xos yo'li. T.: "O'zbekiston", 1993. 186 b.
6. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: "O'zbekiston", 1995. 240 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: 1995. 245 b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI-asr bo'sag'asida... havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: "O'zbekiston", 1997. 280 b.
9. Karimov I.A. Buyuk kelajak sari. T.: "O'zbekiston", 1998. 605 b.
10. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T.: "O'zbekiston", 1999. 180 b.
11. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va Xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni maqsadidir. T.: "O'zbekiston", 2007. 318 b.
12. Karimov I.A. "Mamlakatlarni modernizatsiya qilish va iqtisodimizni

- barqaror rivojlantirish yo'lida". 16-tom, T.: "O'zbekiston", 2008. 365 b.
13. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston", 2009. 93 b.
 14. Karimov I.A. O'zbekiston konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatni barpo etishda mustahkam poydevordir. "Xalq so'zi" gazetasi. 2009 yil 6 dekabr.
 15. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. 2008 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. – "Xalq so'zi" gazetasi, 2009 yil 14 fevral soni.
 16. Karimov I.A. Jahon inqirozini oqibatini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari. T.: "O'zbekiston", 2010. 219 b.
 17. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va Xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir (Vazirlar Mahkamasining 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasi). T.: "Xalq so'zi" gazetasi, 2010 yil 30 yanvar.
 18. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2010 yil, 13 noyabr.
 19. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish ustivor maqsadimizdir. – "Xalq so'zi" gazetasi, 2010 yil, 28 yanvar soni.
 20. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-Toshkent, "O'zbekiston", 2011. 250 b.
 21. Karimov I.A. Barcha reja va dastrularimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, Xalqimiz faravonligiga xizmat qiladi. 2010 yilda

mamlakatimizni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi. 2011 yil 22 yanvar soni.

22. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. 2012 yilda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan" Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. <http://uza.uzpolitics/24996/>.
23. Karimov I.A. 2012 yil – Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarilgan yil bo'ladi. -Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti, 2012 yil – O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi

III. Darslik va o'quv qo'llanmalar.

24. Abdullayev O. Namangan viloyati. T.: "Mehnat", 1997. 143 b.
25. Abdullaev O. Farg'ona vodiysi. –Namangan, 2001. 197 b.
26. Akramov Z.M., Toirov A. Ekonomicheskie reformii Respubliki Uzbekistan. M.: TOO Lyuks-ort, 1998. 211 s.
27. Akramov Z.M., Musaev P. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi.- Toshkent, 2001. 213 b.
28. Asanov G.R., Nabixanov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jug'rofiyasi. T.: «O'qituvchi», 1994. 230 b.
29. Akramov Z.M. Namanganskaya oblast (istoriko-geograficheskiy ocherk). T.: 1954. 920 s.
30. Asanov G.R. Sel'skoye rasseleniye Namanganskoy oblasti. –T.: "Fan", 1975. 174 s.
31. Ahmedov E., Sayidaminova Z. O'zbekiston Respublikasi (qisqacha

- ma'lumotnoma). T.: 1998. 230 b.
32. Ahmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. T.: 2002. 198 b.
 33. Bekmurodov va boshqalar. Buyuk va muqaddassan, mustaqil vatan. T.: 2011. 262 b.
 34. Bo'riyeva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. T.: "Universitet", 1997. 194 b.
 35. Baratov A. Namangan viloyatida suv ho'jaligini tashkil etish va suv resurslardan samarali foydalanish masalalari. Geogr.fan.nomz.disser. avtoreferati. Namanagan, 2007. 19 b.
 36. Kovalyov S.A. Sel'skiye rasseleniye (geograficheskoye issledovaniye). M.: -MGU, 1996. 176 s.
 37. Lavrov.S.B., Kaledina N.V. Ekonomicheskaya i sotsialg'no-politicheskaya geografiya mira. M.: 2002. 290 s.
 38. Jumaxonov Sh.S. Sovershenstvovaniye territorial'noy strukturii naseleniya Namanganskoy oblasti. Avtoreferat diss.kant.geog.nauk. T.: 1998. 18 s.
 39. Mallaboyev T.N. Bol'shiye goroda v sisteme rosseleniya Ferganskoy dolinii. Avtoreferat diss.kant.geog.nauk. –Leningrad, 1988. 19 s.
 40. Mirzaahmedov H.S. Osobennosti terretoreal'noy organizatsii I razvitiya sovmetniix predpiyatiy v promishlenosti (napremere Namanganskogo viloyata). Avtoreferat diss.kant.geog.nauk. T.: 2003. 19 s.
 41. Nauchno-texnicheskii progress i razvitie proizvodelg'nqx sil Uzbekistana. – T.: 1993, 312 s.
 42. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi.12-jild. T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2006, 740 b.
 43. O'zbekiston xududlari mustaqillik yillarida. T.: «SHarq», 1996. 54 b.
 44. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. T.: 1995. 160 b.
 45. Sadikov A. Osnovii regeonal'nogo razvitiya: teoriya, metodologiya, praktika (monografiya). T.: "Iqtisod-moliya", 2005. 272 b.
 46. Soliyev A. va boshqalar. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. T.: 2010. 120 b.

47. Soliyev A.S., Mirzaahmedov H.S., Jumaxonov Sh.S. Qo'shma korxonalar geografiyasi. Namangan, 2006. 232 b.
48. Soliyev A. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. (O'quv qo'llanma). T.: "Universitet", 2003. 354 b.
49. Soliyev A., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari. (O'zbekiston qishloq joylar geografiyasi). Monografiya. T.: "Fan va texnologiya", 2009. 212 b.
50. Soliev A.S., Qarshibaeva. L. Iqtisodiy va sotsial geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. Guliston, 1999. 182 b.
51. To'xliiev. N. O'zbekiston iqtisodiyoti T.: UME, 1998. 284 b.
52. Xachiev G. Uzbekistan v mirovoy ekonomike. -ToshkentT.: 1993. 194 b.
53. G'ulomov S., Ubaydullaeva R., Axmedov E. Mustaqil O'zbekiston. T.: 2003. 286 b.
54. Foffurov A. Mintaqa iqtisodiyoti asoslari. (o'quv qo'llanma). –Farg'ona, "Farg'ona" nashriyoti. 2006. 204 b.
55. "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" Davlat dasturi. T.: 2009. 315 b.
56. Yangi O'zbekistonning 7-zafarli yili. –Toshkent, 1999. 66 b.

Internet ma'lumotlari

1. [www. Ecologiy.info](http://www.Ecologiy.info)
2. [www. Edupmao.ru](http://www.Edupmao.ru) (portal)
3. [http: www.murman.ru](http://www.murman.ru) (ecology) comitet.
4. www.ziyonet.uz
5. www.referat.ru